



ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 38
Часть-5_ Февраль -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Февраль - 2024 год

ЧАСТЬ - 5



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING BADIY IJODKORLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI

Muxammadiyeva Madina Tulkinbayevna

Özbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi xodimasi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolamning mazmuni shundan iboratki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atga muhabbatni uyg'otish, tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyatini hamda imkoniyatini aniqlash, bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, maktab yoshidagi bolalarda tasviriy san'atning ahamiyati keng yoritilgan.

Kirish so'zlar: Intellektual, ahloqiy, estetik, jismoniy va ruhiy sog'ligi, rasm, applikatsiya, loy ishlari, tasviriy faoliyat, qurilish materiallari, pedagog, mo'yqalam, ritm, proportsiyani chuqurroq sezish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori

malakaga ega bo‘lishi, buning uchun muntazzam ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko‘tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak.

Davlat umumilliy dasturi ta’lim tizimini tubdan isloq qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta’lim sifat samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo‘naltirildi.

Tasviriy faoliyati bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasasi dasturi va maktabda tasviriy san’at dasturi bolalarda tevarak atrofqa nisbatan, san’at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi mashg‘ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o‘qib ketishlari uchun zarur bo‘lgan vazifalar xal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o‘z harakatini o‘rtoqlarining harakatiga bo‘ysundirishga o‘rganadilar. Bolalar maktabgacha ta’lim muassasasida tasviriy faoliyati mashg‘ulotlari bolalarda, o‘quv faoliyatida zarur bo‘lgan malaka ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining tasviriy faoliyat birlamchi yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi.

Bu yo‘nalishning samarasi estetik yo‘nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks tarzda qo‘llanilgandagina aniq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tiladigan “Tasviriy faoliyat” mashg‘ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o‘z xususiyatiga ko‘ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg‘ulotlarining barcha turlari bolalarda go‘zallikni bilish uchun, borliqqa emotsiyonal-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg`ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san`at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san`atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san`at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta`lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg`ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg`ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida keltirilgan mashg`ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang`ich sinflarda ta`lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg`ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi.

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida, qalam hamda mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z xarakterini va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu esa, malakani egallah, bolalarda qo‘lini yengil, erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proportsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab

yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda harakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga , ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu mashg`ulotlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlanadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar mакtab talabiga yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko'rsatib, bolalar tayyorlov va katta guruhida o'rganishning boshlang`ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Bolalar naturani analiz qilishga butun umumi shaklni xomaki qog`ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to'g'irlashga, naturaga o'xshatishga urinadilar.

Tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida geometrik shakllarni topa olishga yoki ko'ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi kattaligi, uzunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishini bilan tanishishni bolalarni mакtabni 1-sinfda elementar matematik tushunchalarini puxta egallahlariga yordam beradi.

Qurish-yasash mashg`ulotlarida materiallardan qurish yasash bolalarda ko'z bilan chamalashni shakllantiradi va bolalarni mакtabdagи texnik darslarni egallahsga yoki o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali mакtabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uзвiy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, kattakichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqeа-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mammun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari; ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda timmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proportsiyani chuqurroq sezish

bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xillidan zavq oladi, bahramand bo'ladi.

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muhim o'rinn egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallahisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurilish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallah maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallahlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://fayllar.org/1-mavzu-maktabgacha-talim-tashkilotlari-va-oilada-bolalarni-ta.html>
2. [https://azkurs.org/1-mavzu-maktabgacha-yoshdagি-bolalarni-tasviriy-qibiliyati-va.html](https://azkurs.org/1-mavzu-maktabgacha-yoshdagি-bolalarni-tasviriy-qobiliyati-va.html)
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlarida-tasviriy-faoliyat-turlari-va-mazmuni>

SINXRON TARJIMADA SIYOSIY ATAMALARING QO'LLANILISHI

Zulayho Shuhrat qizi Karimova,

TDSHU magistranti, Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 910185777;

Email: karimovazulayho87@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada, sinxron tarjima, siyosiy uchrashuvlardagi yuridik suhbatlar va sinxron turdag'i tarjimalarda qo'llaniluvchi siyosiy atamalar to'g'risida so'z yurutilgan. Jahoh miqyosida to'g'ridan to'g'ri suhbat vaziyatlarida asosan qaysi turdag'i tarjimadan foydalanishlari va qaysi tarjimonlik turi ko'proq qo'llanilishi, tinglovchilarga siyosiy terminlarni yetkazib berish algoritmi, bularning barchasi haqida ushbu maqolada axborot olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, sinxronist, nutq tahlili, nutq strategiyalari, tarjimonning strategiyalari, tarjimonlik, siyosiy nutq, siyosiy atamalar.

Abstract: This article talks about political terms used in simultaneous interpretation, legal conversations at political meetings, and simultaneous interpretation. In this article, you can get information about what type of interpretation is used and what type of translation is used more often in direct conversation situations, the algorithm of delivering political terms to the audience, and all this.

Key words: simultaneous interpretation, synchronist, speech analysis, speech strategies, interpreter's strategies, interpretation, political speech, political terms.

Аннотация: В данной статье говорится о политических терминах, используемых при синхронном переводе, юридических беседах на политических собраниях, а также о синхронном переводе. В этой статье вы можете получить информацию о том, какой тип устного перевода используется и какой вид перевода чаще всего используется в ситуациях прямого разговора, алгоритме донесения политических терминов до аудитории и обо всем этом.

Ключевые слова: синхронный перевод, синхронист, анализ речи, речевые стратегии, стратегии переводчика, устный перевод, политическая речь, политические термины.

Bugungi kunda jahon miqyosida siyosiy suhbatlarda sinxron tarjimadan keng foydalanishmoqda. Buning eng asosiy sababi sinxron tarjima juda qulay, davlat uchrashuvlarida to'g'ridan to'g'ri manfaatli suhbat qurishda bunday tarjimalar juda qo'l keladi. Og'zaki tarjimalarni 3 turga bo'lishimiz mumkin, ketma-ket, sinxron va shivirlash.

Hukumatimizda tarjimaning asosan yozma turi taraqqiy etgan va bunga turli tarixiy davrlardan tortib oxirgi yuz yillikdan yozma tarjimaning ajoyib namunalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin so‘nggi 30 yilni olsak, endilikda e’tibor og‘zaki tarjima, shu jumladan, sinxron tarjimaga ko‘proq qaratilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, hozirgi davrda istalgan tildan, shu jumladan, o‘zbek tilidan chet tiliga, chet tilidan o‘zbek tiliga tezkor, bexato, adekvat, mantiqiy tarjima qila olish mahoratini shakkantirish dolzarblashib ulgurdi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi bilan bo‘liq barcha qonun va dasturlarida zamon talablariga muvofiq bo‘lgan barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar va asoslar belgilab qo‘yilgan. Ushbu qaror asosida so‘nggi yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa bir qator oliy ta’lim muassasalarida sinxron tarjima nazariyasini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Sinxron tarjimonlar ish vaqtida siyosiy nutqlarni iloji boricha tez va sifatli tarjima qilishlari uchun ular yod olgan muayyan lug’atlar yordamga keladi. Undagi atamalar bilan tanishish jarayonida tinglovchilar yoi mutolaa qiluvchilar bu atamalarning izohi bilan ham baravar boxabar bo’ladi. Bu esa albatta, tarjimonning ilmiy salohiyatini ham oshishiga sabab bo’ladi. Lug’atda siyosiy nutqlarda, turli konferensiyalarda eshitish mumkin bo‘lgan sohaga doir ko‘p atamalar keltirilgan bo‘lib, ular juda ko‘p miqdordagi gazeta, jurnallar, OAV orqali va atamalar lug’atidan foydalaniladi. Bizga ma’lumki yurtimizda juda ko‘p siyosiy atamalar bilan ishlovchi olimlar mayjud bo‘lib, hozirda ularning aksariyati o‘zlarining qalamlariga mansub lug’aviy kitoblarida, asarlarida shunday terminlarni qo’llaydilar va ularning izohini so’z qo’llangan varoqning chetiga yoki ostiga bitib qo’yadilar, bu esa o’quvchining yangi atama bilan tanishish imkonini beradi. Quyida turli yirik xalqaro suhbatlarda qo’llanilgan bir nechta siyoziy atamalarning izohlari bilan kelganini ko‘rishingiz mumkin va yangi lug’aviy terminlarni tanib olishingizga imkon bor:

1. **BEKOR QILISH**(lot. Abrogatio) – eskirgan qonunni foydasizligi uchun yoki zamon ruhi va huquqiga zid bo‘lsa, bekor qilish. A. yangi qonun deb e’lon qilindi. Bular mavjud: aslida bekor qilish - eski qonunni yangisiga to’liq almashtirish; derogatsiya - eski qonunni qisman bekor qilish; bekor qilish - eski qonunga kerakli o’zgartirishlar kiritish va subrogatsiya - eski qonunni qo’shish.

2. **SIYOSIY ADVENTURIZM**(fr. avantura - sarguzasht, tavakkalchilik) - siyosiy liderlar, shaxslar, partiylar, harakatlar, davlat va boshqa institutlarning ob’ektiv siyosiy vaziyat to’g’risida haqiqiy bilimga ega emasligiga, o’z imkoniyatlari va qobiliyatlarini mutlaqlashtirishga asoslangan faoliyati. o’ylab topilgan, asossiz harakat.

3. **AVTOKRATIYA**(yun. autokrateia — avtokratik) — bir kishining nazoratsiz hokimiyatiga ega bo‘lgan boshqaruv shakli, avtokratiya.

4. **IJTIMOIYLASHTIRISH AGENTLARI**(Lotin agens - faol) - shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlar va omillar (oila, ta’lim

muassasalari, cherkov, ommaviy axborot vositalari, jamoat va siyosiy institutlar, ijtimoiy-siyosiy hayot jarayonlari va boshqalar).

5. AGITATION (lot. agitatio — harakatga keltirish) — ommaning ongi va kayfiyatiga ta'sir etuvchi, ularni faollikka undash maqsadida og'zaki, bosma, ko'rgazmali siyosiy faoliyat. Agitatsiya vositalari sifatida - mitinglar, nashrlar, nutqlar, plakatlar, stendlar va boshqalar.

6. ADAPTATSIYA(qarang. - asr lat. adaptatio - moslashish) - 1) amaldagi ichki huquqiy normalarni davlatning yangi xalqaro majburiyatlariga uning qonunchiligiga hech qanday o'zgartirishlar kiritmasdan moslashtirish. 2) (lotincha adaptare - moslashish) - shaxsning (guruhning) ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri jarayoni, bu jarayon davomida ma'lum bir jamiyat, sind, guruhning hukmron normalari va qadriyatları o'zlashtiriladi va atrof-muhit. faoliyatning yangi shartlari va maqsadlariga muvofiq ham o'zgardi, masalan. sanoatlashtirish, urbanizatsiya, ilmiy-texnikaviy inqilob bilan bog'liq holda. 3) Siyosiy mexanizmlarni (hokimiyat institutlari, siyosiy partiyalar, davlat tizimlari) ularning yashash sharoitlarining o'zgaruvchanligiga moslashtirish.

7. SIYOSIY FAOLIYAT - shaxs, guruh, partiya manfaatlarini faol ifodalash; ijtimoiy harakat hokimiyat munosabatlari sohasida.

8. ANARXIZM(yun. anarchia — anarxiya, anarxiya) — har qanday davlat hokimiyatini inkor etish harakterli jihat bo'lgan turli xil siyosiy oqimlar majmui. Anarxistlar siyosiy kurash vositalariga - partiyalarga, tashkilotlarga salbiy munosabatda bo'lishadi, chunki ularning faoliyati davlat hokimiyatiga ta'sir qilish yoki uni bosib olish muammolari atrofida to'plangan.

9. Artikulyatsiya- ijtimoiy ob'ektlarning o'z ehtiyojlarini bilishi, ularni muayyan ijtimoiy da'volarga aylantirish jarayoni; norozilik tuyg'ularini manfaatlarni ifodalashning aniq subyektiv shakliga aylantirish texnologiyasi

10. MUNOSABAT(fransuzcha munosabat – pozitsiya, munosabat) – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy tizimlaridagi polivalent islohot natijasida jamiyat va shaxs dunyoqarashidagi munosabatlarning keskin, sifat jihatidan o'zgarishi.

11. SIYOSIY KUCHLAR MUVOZONASI(fr. Balans — tarozi) — jamiyat va davlatning tez o'zgaruvchan siyosiy hayotida siyosiy kuchlarning nisbati yoki muvozanatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi.

12. BLANQIZM- inqilobiy harakatdagi fitna taktikasi tarafdori, frantsuz utopik Lui Ogyust Blanki (1805-1881) nomi bilan bog'liq siyosiy oqim; keng ma'noda - har qanday partiya, harakat faoliyatidagi fitna taktikasi (va unga mos keladigan nazariya).

13. BOYKOT(o'z. boykot) -1) iqtisodiy va siyosiy talablarni qondirishga majburlash maqsadida shaxs, tashkilot, davlat bilan munosabatlarni saqlab qolishdan

bosh tortishdan iborat bo'lgan siyosiy va iqtisodiy kurashni qabul qilish; 2) o'z vazifalarini xuddi shu maqsadlarda bajarishdan bosh tortish; 3) norozilik bilan munosabatlarni tugatish.

14. **VASSALLIK**(fransuzcha vassalit) — o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada — ayrim feodallarning (vassallarning) boshqalarga (senyorlarga) shaxsiy qaramlik munosabatlari tizimi. Vassal davlat - bu boshqa, kuchliroq davlatga (suzerain) qaram davlat.

15. **G'ARBLANISH**(inglizcha g'arbiy - g'arbdan) G'arb tajribasini mexanik nusxalash.

16. **YETAKCHILIK**- siyosiy shaxsning hal qiluvchi rolini tan olishga asoslangan, oliv sudya, inson taqdiri hakami huquqlari bilan ta'minlangan siyosiy konsepsiya.

17. **URUSH**- qurolli to'qnashuvlarning turlaridan biri, davlatlar, millatlar, ijtimoiy guruhrar o'rtasidagi uyushgan qurolli kurash. Siyosatning zo'ravonlik bilan davom etishi. Urush teatri (TVD).

18. **FUQAROLAR URUSH**- siyosiy qarama-qarshiliklarning rivojlanish bosqichi, turli ijtimoiy kuchlar va odamlar guruhlari o'rtasida hokimiyat uchun uyushgan qurolli kurash bilan tavsiflangan muayyan davlat ichidagi siyosiy jarayon. Fuqarolar urushining sabablarini jamiyat va davlatning odamlar hayotining barcha asosiy sohalarini qamrab oladigan ijtimoiy inqirozlardan izlash kerak.

19. **SIYOSIY TA'LIM** - siyosiy elita manfaatlariga mos keladigan siyosiy madaniyatni shakllantirish maqsadida aholining (individ, guruh, sinf, xalq) siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish.

20. **GEGEMONIYA**(yunoncha. hegemonfa — hukmronlik) — har qanday siyosiy kuchning boshqa siyosiy kuchga nisbatan hukmronlik mavqeи.

21. **GENOCIDE**(yunoncha genos — jins va lot. caedere — o'ldirish; lit. — naslni yo'q qilish) — har qanday milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman yo'q qilish maqsadida qilingan harakatlar. eng og'ir jinoyat.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha terminlar siyosiy suhbatlarda ko'p qo'llaniladigan atamalardan hisoblanadi. Keltirib o'tgan atamalarimiz qatorida shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab uchratayotgan terminlaringiz ya'ni "boykot" va "genotsid" so'zlari, bu so'zlar Falastin-Isroil urushi natijasida jahon miqyosida keng tarqaldi.

Sinxronistlar atamalar va terminlar bilan ishlashda juda ma'sulyatli bo'ladilar, ular o'z darajalarini oshirish niyatida doimo avvalgi atamalar va yangi atamalarni o'rganishlari zarur, bundan maqsad bir atama bilan kelgan so'zlar jamlanmasini tezkor tarjima qilishdir.

Sinxron tarjima qo'llanilayotgan davralarda inson omilidan tashqari hozirda texnikalardan ham foydalanishmoqda, masalan sun'iy intelekt yordamida kelayotgan ovoz to'lqinlaridagi gaplarni so'zlarga ajratib olish natijasida dastur uni tarjima qiladi, zamonlarini aniqlab uni grammatic tahlil qilgan holda tinglovchining qulochinchilariga uzatadi. Qulochinchilar tashqi muhit tovushlaridan qattiq himoyalangan bo'ladi, sababi o'zining ovozi tarjimalar bilan aralashib ketmasligi, atrofidagi shovqinlar uni tinglashga xalal bermasligi lozim. Siyosiy suhbatlarda har qanday siyosiy termin, har qanday aytilgan so'z juda katta ahamiyat kasb etadi. Sinxron tarjima to'g'risida ma'lumotlar va har qanday yangiliklar siz va biz uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, sinxron tarjimaning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Sinxron tarjimaning ketma-ket tarjimadan afzalliklari odatda quyidagilar:

- Notiqning nutqi uzilishsiz eshitiladi. Bu taqdimotchiga tomoshabinlar e'tiborini jalg qilish, tomoshabinlarning kayfiyati va reaksiyasini his qilish imkonini beradi;
- Tadbir vaqtin ketma-ket tarjimaga qaraganda taxminan ikki baravar kamayadi;
- Ishtirokchilar uchun qulaylik: chet tilini bilish bugungi kunda kamdan-kam uchraydi, shuning uchun ko'p ishtirokchilar chet tilidagi hisobotlarni asl nusxada tinglashni afzal ko'rishadi va ketma-ket tarjima paytida ma'ruzachi to'xtab qolsa va hamma ishtirokchilar tarjimani tinglashsa, ularga xush yoqmaydi;
- Bir vaqtning o'zida bir nechta tillarga tarjima qilish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, sinxron tarjimaning salbiy tomonlari ham bor.
- Sinxron tarjimaning narxi odatda sinxron tarjimonlarning yuqori stavkalari va maxsus asbob-uskunalarni ijara olish uchun to'lash zarurati tufayli ketma-ket tarjima qilishdan ko'ra yuqori bo'ladi;
- Tadbir mavzusini bir xil darajada yaxshi biladigan kamida ikki yoki uchta sinxron tarjimonni jalg qilish zarurati mavjud;
- Sinxron tarjima ma'lumotlarning ancha yuqori darajada yo'qolishi va assimilyatsiya qilinishining pastligi bilan tavsiflanadi.


Sinxron tarjimonlik juda qiyin kasblardan hisoblanadi, tarjimon har ikki tilni yaxshi bilishi undan talab qilinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar va internet resurlari:

1. Bartłomiejczyk, Magdalena. 2016. Face Threats in Interpreting. Katowice: Wydawnictwo Uniwersytetu Śląskiego.
2. Dirker, Ebru. 2015. "Conference Interpreting". In The Routledge Handbook of Interpreting, edited by Renée Jourdenais and Holly Mikkelsen, 171-186. London - New York: Routledge.

3. European Parliament. 2019. Rules of Procedure of the European Parliament. [10/04/2019]. <http://www.europarl.europa.eu/sides/getLastRules.do?language=en&reference=RULE-198>.
4. Magnifico, Cédric, and Bart Defrancq. 2017. "Hedges in Conference Interpreting: The Role of Gender". *Interpreting* 19 (1): 21-46.
5. <https://sanout.ru/uz/medicine-and-health/politicheskie-terminy-i-ih-opredeleniya-slovar-vazhneishih-ponyatii-i/>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sinxron_tarjima
7. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 235 b.
8. John Lyons. Language and Linguistics. Cambridge University press. London. 2000., 31 p.
9. <https://www.zaminfoundation.ngo/oz/articles/webforum2020>
10. www.sectsco.org

XORIJIY DAVLATLARDA OMMAVIY TARTIBSIZLIK LARGA QARSHI KURASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI



*Idiyev Asqar Abdirashidovich;
Xakimov Mirjalol Abdugopirovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistraturasi tinglovchilari*

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali mualliflar xorijiy davlatlarda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan hamda o'z fikrlarini bildirib o'tishgan.

Kalit so'zlar. Ommaviy kayfiyat, Jamoat tartibi, ommaviy tartibsizlik, siyosiy elita, sanksiya.

Abstract. Through this article, the authors have analyzed the aspects of the fight against mass riots in foreign countries and expressed their opinions.

Keywords. Public sentiment, Public order, public disorder, political elite, sanction.

Bugungi kunda ommaviy tartibsizliklar mamlakatning ijtimoiy - siyosiy hayotining barqarorligiga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va bartaraf etishda jahon tajribasini o'rganish yaxshi samara beradi.

Rossiya, AQSH, Fransiya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyati ikki yo'nalishdagi chora - tadbirlarni o'z ichiga oladi, ular:

- uzoq muddatli;
- joriy yoki qisqa muddatli.[1]

Uzoq muddatli chora-tadbirlarda bevosita ommaviy tartibsizliklar real holatda vujudga kelgunga qadar bo'lgan, uning oldini olishga qaratilgan faoliyat qamrab olinadi. Bunda nafaqat huquqni muxofaza qiluvchi organlar balki, davlat va jamoat organlari ham belgilangan vazifalarni bajarishadi hamda ular o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik tashkil qilinadi.

Joriy yoki qisqa muddatli chora - tadbirlarda esa ommaviy tartibsizliklar real holatda yuz bergandan so'ng uni bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat nazarda tutiladi. Bundan asosan huquqni muxofaza qiluvchi organlar va zarurat tug'ilsha harbiy qo'shinlar tegishli vazifalarni bajaradi. Ushbu bosqich bevosita kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lib, mamlakat miqyosida yoki ayrim hududlarda favqulodda holat rejimini joriy qilish bilan harakterlanadi. Har ikki yo'nalishda ham tegishli dasturlar va konsepsiylar qabul qilinib, ijrosi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatiladi.

Uzoq muddatli chora tadbirlar belgilangan dastur va konsepsiylar ko'لامи jihatdan ancha katta bo'lib, ularda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa sohalariga tegishli masalalar kiritilishi mumkin. Chunki, aynan ushbu sohalardagi chuqur muammolar kelgusida ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan ushbu yo‘nalishda aholining turli muammolarini o‘rganish, monitoring qilib borish, ularning qulay yechimlarini topish kabi vazifalarning belgilanganligi bilan ikkinchisidan ajralib turadi.

Rossiya Federatsiyasida ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli chora-tadbirlar yo‘nalishida asosiy e’tibor jamiyatda hukm suradigan “**омма kayfiyati**” tushunchasiga qaratiladi.[2]

U asosan ko‘pchilik odamlar massasining jamiyatda ro‘y berayotgan voqeahodisalarga nisbatan umumiy psixologik kayfiyati bilan tavsiflanadi.

Agar jamiyatdagi omma kayfiyati salbiy harakter etsa, u holda ommaviy tartibsizliklar kelib chiqish ehtimoli oshib boradi. Shuning uchun, birinchi yo‘nalishdagi asosiy e’tibor omma kayfiyatini normal holatda ushlab turishga qaratiladi.

Rossiya davlatida jamiyatdagi omma kayfiyatining ijobiy yoki salbiy ekanligini aniqlash uchun bir qancha baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu mezonlar yordamida har bitta hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga mamlakatning istalgan bir hududida omma kayfiyati darajalari aniqlab olish imkoniyati vujudga keladi.

Omma kayfiyatini baholash mezonlari:

- ishsizlik darjasи;
- inflyatsiya miqdori;
- kommunal xizmatlar darjasи;
- norozilik namoyishlari soni;
- aholi qatlami o‘rtasidagi farq (boy, o‘rta, kambag‘al);
- infrastruktura holati (ta’lim, sog‘liqni saqlash, yo‘l qurilish va boshqa xizmatlar);
- turli millat vakillari o‘rtasidagi nizoli holatlar mavjudligi;
- aholi xususiy savodxonlik darjasи;
- davlat hokimiyyati va boshqaruv organlariga bo‘lgan ishonch;
- jinoyatchiliklар soni;
- yoshlar orasidagi ishsizlar soni;
- aholining o‘rtacha oylik daromadi;
- aholi muammolari bilan ishlash tizimining yo‘lga quyilganligi.[3]

Ushbu baholash mezonlari har bir davlatda rivojlanish va taraqqiyotga erishish uchun doimiy ravishda davlat organlari tomonidan nazorat qilib boriladi, lekin aynan omma kayfiyatini aniqlash uchun kompleks ravishda tahlilini olib borish, kelgusida turli inqilobiy harakatlarni keltirib chiqarish ehtimoli nuqtai nazaridan tizimli ravishda ishlarni tashkil qilish jarayoni hamma davlatlarda ham yo‘lga qo‘yilmagan. Rivojlangan davlatlarda har bir mezon asosida tegishli dasturlar qabul qilinib, davlat organlari bajaradigan vazifalari aniq belgilab berilgan.

Bundan tashqari, turli aql markazlari va davlat organlaridagi tahliliy bo‘lmalar doimiy ravishda hududlar kesimida yuqoridaqgi baholash mezonlari asosida taxliliy faoliyatni amalga oshirib borishadi va tahlil natijalariga ko‘ra qaysi hududlarda omma kayfiyati salbiy harakter kasb etsa, ushbu hududlardagi mavjud muammolarni bartaraf etib, kelgusida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan norozilik chiqishlari oldi olinadi.

A.P. Nazaretyan fikricha, salbiy harakterdagi ommaviy kayfiyat juda yuqumli va tez tarqaladi. Uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilish qiyin, yana bir o‘ziga xos jihatni jamiyat tuzilishi qanchalik tabaqalashgan, plyuralistik bo‘lsa ularning ehtiyoj va manfaatlari ham shunchalik xilma-xil bo‘ladi. Shuning uchun ham davlat avvalo jamiyatning guruhlarga ajralib ketishining oldini olishi lozim.[4]

Germaniya tajribasida ommaviy tartibsizliklarning oldini olish tizimining asosiy bo‘g‘ini vazifasini siyosatchilar va OAV vakillari amalga oshiradi. Mamlakatdagi *siyosiy elita* va *jurnalistlar* jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni topib uni ochiq oydin jamoatchilik muhokamasi mavzusiga aylantiradi. Ular fuqarolar bilan doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yib, ularning ehtiyojlari va havotirlari to‘g‘risida barcha ma’lumotlarni davlat organlariga yetkazish uchun ko‘prik bo‘lib xizmat qilishadi. Bundan tashqari, ular fuqarolarning muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta’minalash uchun siyosiy huquqlarni kengaytirish tashabbusi bilan chiqishadi.[5]

2. Joriy va qisqa muddatli yo‘nalishdagi chora-tadbirlar, yuqorida ta’kidlanganidek ommaviy tartibsizliklar xarakatlari real holatda vujudga kelgandan so‘ng kuch ishlatish bilan uni bartaraf etish jarayoni nazarda tutiladi.

Xorijiy davlatlarda ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan operatsiyalarda asosan jamoat tartibini saqlashga ma’sul bo‘lgan politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘zaro hamkorlikda ishtirok etishadi.

Jamoat tartibini saqlashda politsiyaning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi bo‘linmalar bilan o‘zaro hamkorlik davlat politsiya tizimlarining tuzilishiga bog‘liq bo‘lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin. Bular fragmental, markazlashgan va integratsiyalashgan.[6]

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va MDH davlatlar jinoyat kodekslarini qiyosiy tahlil qilinganda, Jinoyat kodeksining 244-moddasini (Ommaviy tartibsizliklar) yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha o‘zgartirishlar kiritish lozimligi ma’lum bo‘ldi.

Hozirda xorij davlatlaridagi ommaviy tartibsizliklar aksariyat hollarda tashqi kuchlarning ta’siri va moddiy ko‘magi bilan tashkil qilinayotganligi, kelgusida bunday holatning bizda ham takrorlanish ehtimolini inobatga olsak, qonunchiligidan javobgarlik chorasi nazarda tutilmagan. Ma’lumot uchun, Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksida ommaviy tartibsizliklar tashkil qilishda xorijiy davlatlar yoki tashkilotlarning moddiy yoki boshqa turdagи ko‘magi bo‘yicha tegishli javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, mazkur moddada hokimiyat vakiliga bo‘ysunmaslikka va tartibsizliklar sodir etishga **chaqiruv** bo‘yicha ham javobgarlik belgilanmagan. Lekin, xozirda global internet tarmog‘i orqali turli norozilik aksiyalari o‘tkazishga va tartibsizliklarni amalga oshirishga chaqiruvlar keng ravishda ommalashib bormoqda, bu borada ayniqsa xorijiy davlatlar ta’siridagi “**Jyoltiy press**” deb ataluvchi internet tarmoqlari ancha faol ishlamoqda.

Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Rossiya va boshqa MDH ga a’zo davlatlar jinoyat qonunchiligidagi yuqoridagi holatlar bo‘yicha Kodeksga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 212-moddasini (ommaviy tartibsizliklar) tahlil qilganda boshqa davlatlar jinoyat kodeksidan farqli ravishda shaxslarga ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish usullarini, qurol-yarog‘, portlovchi qurilmalardan foydalanishni, ob‘ektlarni yashirin kuzatishni o‘rgatish, yoki tartibsizliklarda ishtirok etish uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlik bilan shug‘ullantirish uchun ham tegishlicha javobgarlik choralari belgilangan.

Bundan tashqari, xorij davlatlari jinoyat qonunchiligidagi ommaviy tartibsizliklar bilan bog‘liq moddalarning *sanksiya* qismida subyektlarning jinoyatda ishtirok qilish darajasidan kelib chiqib alohida tartib belgilangan, ya’ni tashkilotchilik, faol ishtirok etish, tartibsizliklarga chaqiruv va tayyorgarlikdan o‘tish bo‘yicha og‘irdan yengilga qarab jazolar tayinlanadi, bu esa kelgusida aybdorga nisbatan sud tomonidan jazo tayinlashda subyektiv yondashuvni kamaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksining 244- moddasida esa jinoyatda ishtirok etish darajasidan kelib chiqib, alohida jazo tayinlash nazarda tutilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Старостин С.А. Управление органами внутренних дел при чрезвычайных ситуациях (правовые и организационные аспекты).
М., БЕК. г. 2014.
2. Зыков В.В. Профилактика массовых беспорядков. Москва. г
3. Ольшанский Д.В. Психология масс - электронная библиотека психологии и социологии. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Psihol/olshansk/09.php
4. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. - Москва. 2015 г.
5. Шнайдер Г. Массовые беспорядки глазами криминолога. - Москва. 2014 г.
6. Жбанчик А.В. зарубежный опыт взаимодействия полиции с другими подразделениями охраны правопорядка Форум права. - 2014. - № 1.

OMMAVIY TARTIBSIZLIK LARGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

*Idiyev Asqar Abdirashidovich;
Xakimov Mirjalol Abdugopirovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistraturasi tinglovchilari*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mualliflar tomonidan ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash samaradorligini oshirish istiqbollarini tahlil qilgan hamda o'z fikrlarini bildirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Jamoat tartibi, ommaviy tartibsizlik, miting, olomon, ijtimoiy fikr, globallashuv.

Abstract. In this article, the authors analyzed the prospects of increasing the effectiveness of the fight against mass disorder and expressed their opinion.

Keywords. Public order mass disorder, rally, crowd, social fic, globalization.

Bugungi kunda Respublikamizda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun barcha sohalarda jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy bosqichda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatini yo'lga qo'yishda ham xorijiy tajribani qo'llagan holda, bir qator yo'naliishlarda islohotlarni amalga oshirish, kelgusida tartibsizliklarni oldini olish va bartaraf etishda o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Respublikamizda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatida ko'p jihatdan tartibsizliklar real holatda vujudga kelgandan so'ng uni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga e'tibor qaratiladi.

Shu nuqtai nazardan ham tartibsizliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshirish dolzarblik kasb etmoqda.

Umumlashtirgan holda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash samaradorligini oshirish yo'naliishlarini ikki guruhga (oldini olish va bartaraf etish) bo'lgan holda belgilash maqsadga muvofiq.

Ommaviy tartibsizliklarni oldini olishga qaratilgan faoliyat yo'naliishida quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

- Xorij tajribasi asosida jamiyatda "**Omma kayfiyati**" tushunchasini shakkantirish va uning salbiy yoki ijobiy harakterda ekanligini aniqlash bo'yicha yuqorida keltirilgan baholash mezonini amaliyatga tadbiq etish lozim.

Ushbu mezon asosida har bir hududdagi - omma kayfiyatini ijobiy va salbiy harakterda ekanligini aniqlab, qaysi bir mezon bo'yicha muammo aniqlansa, shu

asosda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari hamda huquqni muxofaza qiluvchi organlar o‘zaro hamkorligi yo‘li bilan tegishli vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Prezident huzuridagi Jamoatchilik palatasi, «Ijtimoiy fikr» respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlikda iqtisodiy vaziyatni, aholi turmush darajasini, huquqni muxofaza qilish samaradorligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligini, aholi ma’naviyatini, hudud, siyosiy va etnik xususiyatlar kabi omillarni hisobga olgan holda doimiy axborot tahlil ishlarini olib borish.

b) Iqtisodiy ob‘ektlarni yaratish yoki yanada rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar uchun turli xil bandlik dasturlarini amalga oshirish, shu bilan birga ish o‘rinlarini ko‘paytirish, mehnat qonunchiligiga rioya qilishni doimiy nazorat qilish orqali aholining jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan faolliklarini rag‘batlantirish.

v) Kuch ishlatishdan asossiz foydalanishni qoralash, OAV da tartibsizliklarning huquqiy va boshqa salbiy oqibatlari to‘g‘risida keng tushuncha berish, jahonda yuz berayotgan ommaviy tartibsizliklardan yorqin misollar keltirish va boshqalar.

Mamlakatda sog‘lom ichki muxolifatni shakllantirish, siyosatchilar va OAV vakillarning ro‘lini oshirish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 27-dekabr kuni Muxammad al-Xorazmiy nomidagi mакtabning yangi binosida yoshlar bilan uchrashuv chog‘ida va 2020-yil 20-yanvar kuni Oliy Majlis qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida - ichki muxolifat tuzilishiga qarshi emasligini, uning tashqaridan kirib kelmasdan jamiyat ichida tabiiy ravishda vujudga kelgan bo‘lishi lozimligini, uning uchun shu yerda muhit yaratilishi kerakligini ta’kidlab o‘tadi.[1]

Bu bilan asosan davlatdagi turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni aniqlab, ularni davlat yuqori organiga olib chiqish, jamoatchilik muhokamasiga aylantirish imkoniyati vujudga keladi.

Bundan tashqari, ichki muxolifatning mavjudligi va jurnalistlar faolligi tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashib, turli muammolarning hal etilmasdan saqlanib kelayotganligi, davlat organlarining bundan xabardor emasligi kabi vajlari bilan davlat siyosatiga salbiy ta’sir o‘tkazishini hamda fuqarolar ongini manipulyatsiya qilishning oldini olishga imkon beradi.

Bugungi kunda ommaviy tartibsizliklarga aylanish ehtimoli yuqori bo‘lgan norozilik namoyishlari o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni samarali hal etish maqsadida, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasida miting, yig‘ilish va namoyishlar to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish lozim. Hozirda ruxsat etilmagan norozilik namoyishlari soni oshib bormoqda, lekin javobgarlikka tortish uchun

huquqiy asosning yo‘qligi kelgusida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Bundan tashqari norozi kayfiyatdagi shaxslar va huquq himoyachilar tomonidan turli norozilik namoyishlari sodir etilishini barvaqt oldini olish va ularning muammolarini joylarning o‘zida ijobjiy hal etishga yo‘naltirilgan - Idoralararo tizimni shakllantirish lozim.

Bunda poytaxt va viloyat markazlarida ommani jalb qilgan holda, o‘tkaziladigan norozilik namoyishlarini oldini olish bo‘yicha alohida - Ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Mazkur - Ishchi guruh tomonidan norozilik namoyishlari yetakchilarini ularning murojaatlari taalluqli bo‘lgan idoraning mas‘ul shaxsi tomonidan qabul qilinishi tashkillashtiriladi.

Respublika miqyosida, hal etilmayotgan muammolari sababli norozi kayfiyatda bo‘lgan shaxslarning shakllantirilgan ro‘yxatlari asosida, ularning murojaatlarini sinchkovlik bilan o‘rganilishi va fuqarolarda o‘rganish natijalaridan qoniqish hosil qilinishini ta’minalash choralar shuningdek, ular chorak yakunida, ushbu Ishchi guruh tomonidan milliy teleradiokompaniyalar mutaxassislarini jalb etgan holda, ruxsat etilmagan norozilik namoyishlarida o‘tkazganlik va unda ishtirok etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadigan videoroliklar tayyorlanib, ularni televideonie orqali namoyish etib boriladi.

Davlat hokimiyyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va aholi o‘rtasida turli ijtimoiy muammolar yuzasidan o‘zaro ommaviy nizolarning vujudga kelayotganligi hamda ularning noxolis tarzda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishi zamirida aholining davlat hokimiyyati organlariga bo‘lgan ishonchi yo‘qolib bormoqda. Shuning uchun kelgusida davlat hokimiyyati organlari va aholi o‘rtasida turli kelishmovchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni (masalan: noqonuniy qurilgan uy-joylarni buzish) hal qilishda Adliya vazirligidan tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tgan, xolisona axborot tarqatish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan ko‘pchilik aholi tomonidan kuzatib boriladigan (kun.uz, daryo.uz) OAV vakillarining bevosita ishtirokini ta’minalash.

Misol uchun hozirda noqonuniy tarzda egallab olingan davlat yerlarini majburiy tartibda davlat tasarrufiga qaytarish butun Respublika bo‘ylab amalga oshirilmoqda.

Bu bo‘yicha tegishli davlat hokimiyyati organlari xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzilgan va ular hududlarga chiqib aholidan yerlarni davlat tasarrufiga qaytarishni talab qilishmoqda, lekin ko‘pchilik aholi bunga qarshilik bildirishi natijasida ichki ishlar organi xodimlari va aholi o‘rtasida mushtlashuv holatlarigacha borib yetmoqda.

Bu vaziyatda ko‘plab norasmiy ijtimoiy tarmoqlar davlat organi xodimlarini aybdor sifatida bir tomonlama baholangan axborot tarqatmoqda.

Agar kelgusida ishchi guruh bilan birga rasmiy OAV vakillari jarayonda bevosita ishtirok etib xolisona axborot tarqatsa keyinchalik yuqoridagi salbiy holatlar takrorlanishini oldi olinishi mumkin.

Ommaviy tartibsizliklarni real holatda vujudga kelgandan so‘ng uni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

- NATO va Fransiyaning Crowd and Riot Control konsepsiysi andozasida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya hamkorligida yagona tizimli dastur ishlab chiqish, unda NATO konsepsiyasidan farqli ravishda tartibsizliklarning oldini olishga karatilgan (profilaktik) chora- tadbirlarga ham e‘tibor qaratish;

- Dasturni ishlab chiqishda Fransiya tajribasi bo‘yicha kompleks yondashuvni qo‘llash, ya’ni unda ommaviy tartibsizliklar boshlangandan toki tugagunga qadar bo‘lgan barcha jarayonni nazorat qilish va boshqarish imkonini beruvchi olomon tuzilishi, harakteri bo‘yicha razvedka qilish, oldindan olomonning harakatlari xususida ma’lumotga ega bo‘lish, maxsus bo‘limlarni kerakli kuch va vositalar bilan ta’minalash, shaxsiy tarkibni jangovar holatda doimiy ushlash bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, kerakli ma’lumotlarni qayta ishslash va monitoring qilib borish bo‘yicha tadbirlarni belgilash. Bundan tashqari, dastur ijrosini o‘z vaqtida ta’minalash yuzasidan IIIV yoki MG tarkibida tegishli bo‘lim tashkil qilish.

Ommaviy tartibsizliklar jinoyatda ishtirokchilik shakliga ko‘ra murakkab ishtirokchilik hisoblanadi, ya’ni u bevosita olomon tomonidan sodir etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 244-moddasi bo‘yicha ommaviy tartibsizliklar sodir etishda faqat tashkilotchilar va faol ishtirokchilar javobgarlikka tortilishi belgilangan, demak biz aybdorni javobgarlikka tortish uchun olomon tarkibidan tashkilotchi va faol ishtirokchilarni ajratib olishimiz lozim. Bizdagi amaliyotda olomon ichidan tashkilotchi va faol ishtirokchilarni aniqlash faqat olingan tezkor ma’lumotlar va guvohlarni so‘roq qilish orqali amalga oshiriladi, xorij tajribasida esa ommaviy tartibsizliklar boshlangandan toki bartaraf qilishgacha bo‘lgan jarayonlar, subyektlar harakati maxsus bo‘limlarga tegishli kuzatuv ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyat samaradorligini oshirishda mavjud qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishida quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi.

1. Markaziy osiyo va MDHga a’zo davlatlar jinoyat qonunchiligiga ko‘ra tartibsizliklarga chaqirish va undash bo‘yicha ham javobgarlik belgilangan, lekin O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ommaviy tartibsizliklarga chaqiruv yoki undash bo‘yicha tegishli javobgarlik nazarda tutilmagan. Shu sababdan, O‘zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasini (ommaviy tartibsizliklar) quyidagicha ikkinchi qism bilan to‘ldirish:

- hokimiyat vakilining qonuniy talabiga faol qarshilik kursatish va ommaviy tartibsizliklar o‘tkazishga chaqiruv, shuningdek fuqarolarga nisbatan zo‘rlik ishlatish yoki ommaviy tartibsizliklar o‘tkazishga undash.

Yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek hozirda ommaviy tartibsizliklar o‘tkazishga ijtimoiy tarmoqlar orqali chaqiruv keng tus olib bormoqda ya’ni 2022-yilda Qozog‘iston Respublikasida bo‘lib o‘tgan ommaviy tartibsizliklarda ham internet roli yuqori bo‘ldi, ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshirilgan provokatsiya natijasida tartibsizlik ishtirokchilari soni keskin ravishda o‘sib ketdi. Agarda jinoyat kodeksi yuqorida keltirilgan qo‘shimchalar bilan to‘ldirilsa, kelgusida ommaviy tartibsizliklar o‘tkazishga chaqiriq qilgan shaxslarni ham tegishli tartibda javobgarlikka tortish uchun imkoniyati vujudga keladi.

2. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 212-moddasi (ommaviy tartibsizliklar) 4-qismida ommaviy tartibsizliklarni tashkil etishda shaxslarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish (qurol-yarog‘, portlovchi buyumlarni ishlatishni o‘rgatish, ruhiy va jismoniy tayyorgarlik) va moddiy ta’minalash uchun ham tegishli javobgarlik choralarini belgilangan.[2]

Rossiya tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 244-moddasini quyidagicha 3-qism bilan to‘ldirish:

- *tartibsizliklar tashkil etish yoki ularda ishtirok etish maqsadida shaxslarni kamsitish, ruhiy va jismoniy tayyorgarlikdan o‘tkazish, tartibsizliklar tashkil etish usullarini, qurol va portlovchi moddalardan foydalanish qoidalarini o‘rgatish tegishli tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy rivojlangan davlatlar xavfsizlik masalasida doimiy ravishda islohotlarni amalga oshirib, katta miqdordagi moddiy sarf xarajatlar bilan bo‘lsada kuchlar muvozanatini saqlashga harakat qilishadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ilm, fan texnika yutuqlardan samarali foydalangan davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minalashda yuksak natijalarga erishmoqda deyish mumkin. Xususan ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatini tashkil qilishda ham NATOga a’zo davlatlarning tajribasi ushbu sohada zamonaviy texnika texnologiyalardan foydalanish, kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish, davlat organlari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi jixatlari bilan alohida ajralib turadi.

Bundan tashkari, Yevropa davlatlarida ommaviy tartibsizliklar, norozilik namoyishlari holatlarining tez-tez uchrab turishi ham bu yerda muammoga jiddiy e‘tibor qaratishni talab qiladi. Shuningdek, bu davlatlarda maxsus bo‘limlar ommaviy tartibsizliklar bilan real holatda qarshi turish amaliyotiga ega, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko‘nikmalarining mavjud, shuning uchun ham kelgusida xorijiy ilg‘or tajribadan O‘zbekistonda ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash faoliyatini takomillashtirishda foydalanish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/news/2019/12/28/shavkat-mirziyoyev-xorijdan-keladigan-muxolifatga-qarshiman>

2. Ugolovnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii ot 13 iyunya 1996 g. N 63- FZ statya.

212. <http://ukodeksrf.ru/>

ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛ

Рахимхўжаев Рустам Нишонхўжаевич
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
кафедра бошлиги, подполковник
Якубов Хушнудбек Шерифбоевич
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
катта ўқитувчи, подполковник

Аннотация. Мақолада тезкор-қидирув тадбирларининг тушунчаси ва моҳияти хақидаги масаланинг назарий жиҳатлари таҳлил қилинган. Тезкор-қидирув тадбирларига таъриф беришда эътиборга олиниши лозим бўлган омиллар келтирилиб, ушбу тушунчани қонунчиликка жорий этиш юзасидан таклифлар берилган.

Таянч сўзлар: тезкор-қидирув фаолияти, тезкор-қидирув тадбирлари, субъект, мақсад, объект, ташкилий чора-тадбирлар, мазмун, элемент, хусусият.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОГО МЕРОПРИЯТИЯ

Аннотация. В статье анализируются теоретические аспекты вопроса о понятии и сущности оперативно-розыскных мероприятий. Приводятся факторы, которые следует учитывать при формулировании понятия оперативно-розыскных мероприятий, и вносятся предложения по внедрению данного понятия в законодательство.

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, оперативно-розыскные мероприятия, субъект, цель, объект, организационные меры, содержание, элемент, характеристика.

«Тезкор-қидирув фаолияти» тўғрисидаги қонунда «тезкор-қидирув тадбирлари»ни ўтказишнинг қонунийлик кафолатлари тизими белгилаб қўйилган бўлиб, унинг 3-моддасига биноан тезкор-қидирув фаолияти «тезкор-қидирув тадбирлари»ни ўтказиш орқали амалга оширилади. Ушбу таърифдан тезкор-қидирув тадбирлари мазкур фаолиятнинг ўзагини ташкил этишини кўриш мумкин. Лекин амалдаги қонунда умумий «тезкор-қидирув тадбирлари» тушунчасининг мазмуни очиб берилмаган. Бу эса, фикримизча, тезкор-қидирув тадбирларини ўтказишда қонунийликка риоя этилиши ҳамда инсон ҳукуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга салбий таъсир этиши мумкин. Шу билан бирга, Қонунда тезкор-қидирув тадбирларига таъриф берилмаганлиги ҳозирга қадар соҳа олимлари ўртасида турли хил қарашлар

пайдо бўлишига, энг ачинарлиси, тезкорқидирув тадбирларининг нотўғри талқин этилишига олиб келмоқда. Натижада, соҳа мутахассислари орасида тезкор-қидирув тадбирларининг мазмун-моҳияти, тушунчаси, асосий белгилари ва тузилишини аниқлаштириш борасида ҳамон бир тўхтамга келинмаган [1, 18-б.].

Жумладан, О.В. Фирсов тезкор-қидирув тадбири тўғрисида фикр билдириб, унга қуийдагича таъриф берган: «*Тезкор-қидирув тадбирлари* — ваколатли шахслар томонидан қонун ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда назарда тутилган асослар ва тартибда тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширишнинг аниқ шаклидир» [2, 168-б.].

Мазкур фикрга қўшилиш қийин, чунки келтирилган таърифда тезкор-қидирув тадбирларининг зарурий элементи «объект», «мақсад» ва «ташикилий чора-тадбирлар» ўз ифодасини топмаган. Шунингдек, тезкор-қидирув тадбирларининг «*Тезкор-қидирув фаолияти вазифаларини ҳал қилиши учун зарур бўлган маълумотларни бевосита аниқлаш ва улардан фойдаланиши*»га қаратилган ўзига хос хусусияти назардан четда қолган[3, 6-б].

К.К. Горяинов, Ю.Ф. Кваша ва К.В. Сурковлар эса «*тезкор-қидирув тадбирлари* деганда мақбул вактда жиноят факти ва жиноят содир этган шахсларни аниқлаб, уларга таъсир кўрсатиш имконини берадиган далилларни (объектлар, ҳолатлар ва бошқаларни) излаш мақсадида бирлаштирилган, мувофиқлаштирилган ҳаракатлар мажмуи»ни [4, 200-б.] тушунишни таклиф этади. Ушбу олимларнинг тезкор-қидирув тадбирлари тушунчасига берган таърифига ҳам қўшилиш қийин. Чунки, унда тезкор-қидирув тадбирларини ўтказувчи субъект кўрсатилмаган, мақсад эса жуда тор ифодаланган, қолаверса, тезкор-қидирув тадбирларининг «*фақат ваколатли субъектлар томонидан тезкор-қидирув фаолияти вазифаларини бажариши учун белгиланган асосларга ва шартларга мувофиқ амалга оширилиши*» каби ўзига хос хусусиятлари қамраб олинмаган.

Бундан ташқари, К.К. Горяинов ва бошқа муаллифлар тезкор-қидирув тадбирларига «тезкор-қидирув фаолияти тўғрисидаги қонунда белгиланган тезкорқидирув фаолияти вазифаларини бажаришга қаратилган ошкора ва ноошкора куч, восита ва усувлар қўлланиладиган ҳаракат ёки ҳаракатлар мажмуи» [5, 281-б.] деб таъриф берадилар. Ушбу таърифга ҳам фақат қисман қўшилиш мумкин. Чунки унда тезкор-қидирув тадбирларининг энг асосий элементлари — субъект ва объект кўрсатилмаган. Шунингдек, тезкор-қидирув тадбирларининг «*норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган асосларга ва шартларга мувофиқ амалга ошириши ва зарур маълумотларни бевосита аниқлаш ва улардан фойдаланиши*» хусусияти назардан четда қолган.

Ўз навбатида, В.Г. Бобров *тезкор-қидириув тадбирларини «ноқонуний ҳаракатларни аниқлаш, олдини олиш, тўхтатиш ва очиш, қидирудаги жиноятчилар ва бедарак йўқолган шахсларни излаб топиш, шунингдек жиноятчиликка қарши курашда бошқа тезкор-тактик масалаларни ҳал қилиш учун муҳим бўлган тезкорқидириув ва бошқа маълумотларни, нарса ва хужжатларни олиш ҳамда улардан фойдаланишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига мувофиқ ташкил этилган ўзаро боғлиқ ҳаракатлар тизими» [6, 4-б.] сифатида таърифлайди. Ушбу таъриф юқоридаги келтирилганларга қараганда бирмунча тўлиқ бўлса-да, лекин унда тезкор-қидириув тадбирларининг таркибий элементи бўлган *субъект* келтирилмаган. Таърифда тезкор-қидириув тадбирларининг «*фақат ваколатли субъектлар томонидан амалга ошириш, ошкора, ноошкора куч, восита ваусуллардан фойдаланиши*» каби хусусиятларни қамраб олинмаган.*

О.А. Вагин ва А.П. Исиченко эса тезкор-қидириув тадбирлари деганда «тезкорқидириув фаолияти тўғрисидаги қонунда белгиланган тезкор-қидириув фаолияти масалаларини ҳал қилишга қаратилган ошкора ва ноошкора куч, восита ва усуllар қўлланиладиган ҳаракат ёки ҳаракатлар мажмуи»ни [7, 281-б.] тушунишади. Бу таърифда ҳам тезкор-қидириув тадбирларининг *субъекти* ва *объекти* кўрсатилмаган. Таърифда «*тезкор-қидириув тадбирларининг қонуний мустаҳкамланганлиги, белгиланган асослар ва шартларга биноан ўtkазилиши и ҳамда зарур бўлган маълумотларни бевосита аниқлаш ва улардан фойдаланишга қаратилган*» хусусиятлари ёритилмаган.

Д.В. Ривман тезкор-қидириув тадбирлари деганда «Тезкор-қидириув фаолияти тўғрисидаги қонун билан ваколат берилган субъектлар томонидан ўтказиладиган мураккаб (тизимлаштирилган), ташкилий жиҳатдан мақсадга йўналтирилган, жиноятчиликка қарш и кураш да аниқ тезкор вазифаларни ҳал қилиш учун мўлжалланган, махсус усул ва воситалар ёрдамида амалга ошириладиган, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлат манфаатларини бузиш, шунингдек ноўрин (асоссиз) тажовуз қилишни истисно этадиган қатъий процессуал, тактик ва макон-вақт чекловларига эга бўлган норматив тартибга солинган ошкора ва ноошкора ҳаракатларни» [8, 81-б.] тушунади. Тушунча бирмунча тўлиқ берилганига қарамай, *объект* келтирилмаган. Тезкор-қидириув тадбирларининг «*қонунда белгиланганлиги, зарур маълумотларни бевосита аниқлаш ваулардан фойдаланишга қаратилганлиги ҳамда ошкора, ноошкора куч, восита ваусуллардан фойдаланиши*» билан боғлиқ хусусиятлари эътибордан четда қолган.

А.Н. Халиков тезкор-қидириув тадбирларини қуйидагича изоҳлайди: «Тезкорқидириув фаолияти тўғрисидаги қонунда белгиланган тезкор-қидириув фаолияти субъектлари томонидан тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини

бажариш учун зарур бўлган аниқ маълумотларни олиш ва қайд этиш мақсадида норматив-ҳуқуқий хужжатлар талабларига мувофиқ ошкора ва ноошкора воситалар ва усулларни бирлаштириб амалга ошириладиган ҳаракатлар» [9, 139-б]. Ушбу таърифга қисман қўттилитт мумкин, чунки муаллиф тезкор-қидириув тадбирларининг мақсадини «зарур бўлган аниқ маълумотларни олиш ва уларни қайд этиши» сифатида ифодалаган. Фикримизча, мақсад «Тезкор-қидириув фаолияти тўғрисида»ги қонунда белгиланган вазифаларини ҳал этиши» бўлиши керак. Шунингдек, таърифда тезкор-қидириув тадбирларининг «қонунда белгиланган асослар ва шартларга биноан ошкора, ноошкора куч, восита ва усуллар ўтказилиши» билан боғлиқ хусусияти кўрсатилмаган.

А.Ю. Шумилов ҳам тезкор-қидириув тадбирларини «Тезкор-қидириув фаолияти тўғрисида»ги қонунга биноан, тезкор-қидириув фаолиятини бевосита амалга оширувчи субъект (тезкор ходим, кўмаклашувчи шахс ва бошқалар)нинг мақсадларига эришиш ва тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган ахборотни олишга қаратилган излов ҳаракати» [10, 183-б.] сифатида изоҳлайди. Фикримизча, ушбу таъриф ҳам тўлиқ эмас. Чунки муаллиф тезкорқидириув тадбирларининг мақсадини тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган «ахборотни олиш» сифатида берган. Назаримизда, мақсад тезкор-қидириув фаолияти тўғрисидаги қонунда белгиланган вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган «ахборотни олиш ва ундан фойдаланиши» бўлиши керак. Шу билан бирга, таъриф тезкор-қидириув тадбирларининг барча хусусиятларини қамраб олмаган. Тезкор-қидириув тадбирларини тезкор-қидириув фаолиятининг бошқа йўналишларидан фарқловчи хусусиятларидан бири «қонунда белгиланган асослар ва шартларга биноан ўтказилиши»dir. Юқоридаги таърифда эса бундай хусусият мавжуд эмас.

А.К. Закурлаев ва Ю.С. Пулаторвнинг фикрича, «тезкор-қидириув тадбирлари — бу тезкор-қидириув фаолиятини амалга оширишда ўтказиладиган, тўлиқ рўйхати тезкор-қидириув фаолияти тўғрисидаги қонунда белгиланган аниқ ҳаракатлар, тезкор-қидириув фаолиятининг таркибий элементларини ўзида ифодалайди, бу элементлар жамулжам ҳолда тезкор-қидириув фаолиятини ташкил этади» [11, 76-б.]. Фикримизча, ушбу муаллифларнинг таърифи тўлиқ эмас, чунки унда тезкор-қидириув тадбирларининг элементлари бўлмиш субъект, объект ва мақсад кўрсатилмаган. Шунингдек, тезкор-қидириув тадбирларини ўтказиш асослари ва шартлари каби хусусияти назардан четда қолган.

Хуқуқшунос олимлар А.А. Хамдамов, Т.Р. Сайтбаев, С.Н. Гордеев, В. Каримов ва А. Е. Чечетиннинг тезкор-қидириув тадбирлари юзасидан берган таърифлари бошқа олимларнига нисбатан мазмунан бой чиққан. Жумладан, А.А. Хамдамов, Т.Р Сайтбаев ва С.Н. Гордеев тезкор-қидириув тадбирларига «Тезкор-қидириув фаолияти тўғрисида»ги қонунда мустаҳкамланган разведик

излов хусусиятига эга бўлган, ваколатли субъектлар томонидан нормативхукуқий ҳужжат талабларига мувофиқ ўтказиладиган ҳамда асосан ноошкора восита ва усулларни ошкора восита ва усуллар билан уйғунлаштирган ҳолда қўллашга асосланган ҳамда тезкор-қидириув фаолияти масалаларини ҳал қилиш учун зарур фактик маълумотларни бевосита аниқлашга қаратилган чора ва ҳаракатлар тизими» [12, 68-б.] сифатида таъриф беришган.

В. Каримов: «*Тезкор-қидириув тадбирлари* — тезкор-қидириув фаолиятининг таркибий қисми бўлиб, ваколатли субъектлар томонидан қонунда белгиланган асослар ва шартларга биноан ошкора ва ноошкора усул ва воситалар уйғунлигига ўтказиладиган, тезкор-қидириув фаолиятининг вазифаларини бажаришга йўналтирилган ўзаро муштарак тадбирлар мажмуудир» [1, 19-б.], деб изоҳлаган.

А.Е. Чечетин эса *тезкор-қидириув тадбирларига* «тезкор-қидириув фаолияти тўғрисидаги қонун билан белгиланган ваколатли субъектлар томонидан нормативхукуқий ҳужжатлар талабларига мувофиқ тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган фактларни бевосита аниқлаш ва улардан фойдаланишга қаратилган, ошкора восита ва усуллар билан бирга асосан ноошкора восита ва усуллардан фойдаланиб ўтказиладиган ҳаракатлар» [13, 21-б.], деб таъриф берган.

Биз юқорида келтирилган олимларнинг тезкор-қидириув тадбирларига берган таърифларини таҳлил қилиш орқали тушунчаларни ёритишда тезкор-қидириув тадбирларининг айrim элементлари ёки хусусиятларини эътибордан четда қолдирганликларига гувоҳ бўлдик. Фикримизча, мазкур таърифлар тезкор-қидириув тадбирларининг моҳиятини тўлиқ тушуниш ва ёритишга имкон бермайди.

«Тезкор-қидириув тадбирлари» тушунчасига таъриф беришда асосий эътиборни тезкор-қидириув тадбирларининг элемент ва хусусиятларига қаратиш, зарур деб ҳисоблаймиз.

Тезкор-қидириув тадбирлари — қонун талабларидан келиб чиқиб, қуйидаги асосий элементлардан иборат бўлиши лозим: обьект; субъект; мақсад; ташкилий чора-тадбирлар; мазмун.

Тезкор-қидириув тадбирларининг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилар:

қонун билан белгиланганлиги;

фақат ваколатли субъектлар томонидан амалга оширилиши;

қонунда белгиланган асос ва шартларга биноан ўтказилиши;

ошкора ва ноошкора куч, восита, усуллардан фойдаланган ҳолда ўтказиш мумкинлиги;

тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини ҳал қилиш мақсадида зарур бўлган маълумотларни аниқлаш ва улардан фойдаланишга қаратилган бўлиши [14, 74-б.].

Тезкор-қидириув тадбирларининг элементлари ва хусусиятлари таҳлилидан келиб чиқиб, назаримизда, тезкор-қидириув тадбирларига қуидагича таъриф берилса, мақсадга мувофиқ бўлади:

«Тезкор-қидириув тадбири – «Тезкор-қидириув фаолияти тўғрисида»ги қонунга мувофиқ ваколатли субъектлар томонидан белгиланган тартибда тезкор-қидириув фаолияти вазифаларини ҳал этиш учун зарур бўлган фактик маълумотларни бевосита аниқлаш, олиш ва улардан фойдаланиш мақсадида ошкора ва ноошкора куч, восита, усулларни қўллаб ўtkaziladigan ҳаракатлар мажмуюи».

Шундай қилиб, қонунчилик техникасига кўра янги қабул қилинаётган қонунларда соҳага тааллуқли асоси йтушунчаларнинг мазмuni очиб берилаётганлиги, ҳуқуқшунос олимлар томонидан «тезкор-қидириув тадбирлари» тушунчасининг айrim ҳолларда нотўғри талқин этилишига барҳам бериш ҳамда амалиётчи ходимларнинг фаолиятида юзага келиши мумкин бўлган турли ҳолатларга аниқлик киритиш мақсадида, Ўзбекистон Республикасининг «Тезкор қидириув фаолияти тўғрисидаги қонун»га асосий туш унчалар деб номланган 31-моддасини қўшиб, унда тезкор-қидириув тадбирлари тушунчасига таъриф бериш зарур деб ҳисоблаймиз.

Мазкур таклифларнинг амалдаги қонунчиликда ўз ифодасини топиши ҳуқуқий бўшликларни тўлдириб, қонунийликка риоя этилиши ҳамда инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари таъминланишига хизмат қиласи. Шу билан бирга, соҳа олимлари орасида «тезкор-қидириув тадбирлари» тушунчаси билан боғлиқ келишмовчиликларни бартараф этишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар / Использованная литература

1. Каримов В.Г. Тезкор-қидириув фаолиятини такомиллаштиришнинг назарий ва ҳуқуқий жиҳатлари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. — 2019. — № 3.
2. Фирсов О.В. Правовме основм оперативно-розмскнmx мероприятий: Учеб. пособие. — М.:Норма-ИНФРА-М., 2011.
3. Якубов, X. Ш. (2023). ТЕЗКОР ЭКСПЕРИМЕНТ ТЕЗКОР-ҚИДИРИУВ ТАДБИРИНИНГ ТУШУНЧАСИ. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(5), 172-186.
4. Горяинов К.К. Федеральний закон «Об оперативно-розмской деятельности»: Комментарий / К.К. Горяинов, Ю.Ф. Кваша, К.В. Сурков. — М., 1997.

5. Теория оперативно-розмской деятельности: Учебник / Под ред. К.К. Горяинова, В.С. Овчинского, Г.К. Синилова. — М., 2010.
6. Бобров В.Г. Понятие оперативно-розмского мероприятия. Основания и условия проведения оперативно-розмских мероприятий: Лекция. — М., 2003.
7. Ривман Д.В. Комментарий к Федеральному закону «Об оперативно-розмской деятельности». — СПб., 2003.
8. Халиков А.Н. Правовме основм оперативно-розмской деятельности: Курс лекций. — М., 2007.
9. Шумилова А.Ю. Курс основ оперативно-розмской деятельности: Учебник для вузов. 3-е изд., доп. и перер. — М., 2008.
10. Закурлаев А.К., Пулатов Ю.С. Тезкор-қидирув фаолияти: Ўқув қўлланма — Т., 2014.
11. Ўзбекистон Республикасининг «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги қонунига шарҳ / А.А. Ҳамдамов, Т.Р. Сайтбаев, С.Н. Гордеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.
12. Чечетин А.Е. Актуальне проблемм теории оперативно-розмским мероприятияй. — М., 2006.
13. РАХИМХЎЖАЕВ, Р. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. ЮРИСТ АХБОРТОНМАСИ, 2(3), 71-76.
14. Raximxo'jayev, R. N. J. (2021, May). SOME ASPECTS OF QUICK-SEARCH ACTIVITIES. In Archive of Conferences (Vol. 24, No. 1, pp. 38-39).

ТЕРГОВ ОРГАНЛАРИНИНГ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ФАОЛИЯТИ ТУШУНЧАСИ ҲАМДА НАЗАРИЙ-ХУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ

Нельматов Азизбек Галибжон ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

ўқитувчиси, капитан

Жамолов Хамза Мухаммадиевич

Ўзбекистон Республикаси ИИВ ходими

Аннотация. Мақолада тергов органлари томонидан жиноятларниң олдини олиш фаолияти бўйича соҳа олимларининг фикрлари асосида таҳлил қилинган, уларниң тушунчаси, мазмун-моҳияти, шунингдек, халқаро нормалар таснифлари ўрганилган. Жиноятнинг сабаби ва унга имкон берган шартшароитлар, жиноятларни олдини олиш, профилактика тушунчаларига алоҳида эътибор қаратилган. Мақоланиң хуоса қисмида хозирги вақтда тергов органларининг жиноятларни олдини олиш фаолияти жамият ҳаётида муҳим аҳамият касб этиши ёритилган.

Калит сўзлар: тергов органлари, жиноят иши, олдини олиш, профилактика, юридик фанлар тизими, суриштирувчи, терговчи, прокурор, суд, вазифа, жиноят аспекти.

ПОНЯТИЕ И ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СЛЕДСТВЕННЫХ ОРГАНОВ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация. В статье на основе мнений ученых анализируется профилактическая деятельность следственных органов, изучаются ее понятие, сущность, а также классификации международных норм. Особое внимание уделено причинам преступности и условиям, которые сделали ее возможной, понятиям профилактики и предупреждения преступности. В заключительной части статьи поясняется, что профилактическая деятельность следственных органов имеет большое значение в жизни общества.

Ключевые слова: следственные органы, уголовное дело, предупреждение, предупреждение, система юридических наук, следователь, следователь, прокурор, суд, задача, уголовный аспект.

THE IMPORTANCE OF THE PRESUMPTION OF INNOCENCE IN THE ACTIVITY OF INVESTIGATIVE BODIES

Abstract. In the article, the crime prevention activities of investigative bodies are analyzed based on the opinions of scientists, their concept, essence, as well as classifications of international norms are studied. Particular attention is paid to the causes of crime and the conditions that made it possible, the concepts of crime prevention and prevention. In the concluding part of the article, it is explained that the

crime prevention activities of investigative bodies are of great importance in the life of the society.

Key words: investigative bodies, criminal case, prevention, prevention, system of legal sciences, investigator, investigator, prosecutor, court, task, criminal aspect.

Тергов органларининг жиноятларни олдини олиш фаолияти ҳуқуқбузарликларни профилактика қилишнинг умумий назарий асослари билан уйғун ҳисобланади, яъни ҳар икки тушунча мазмун-моҳиятига кўра бир-бири билан узвий боғлиқ ва ўзаро бир-бирини тўлдириб боради. Бироқ, таъкидлаб ўтиш лозимки, тергов органлари бутун бир жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг асосини ташкил қилувчи, унинг йўналишларини белгилашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган жиноятнинг сабаб ва шарт-шароитларини аниқлашда муҳим ўрин тутади. Бу масалада рус олими И.Р. Веренчиковнинг таъкидлашича, терговчининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини ўрганишнинг муҳимлиги, унинг жиноятлар ижтимоий профилактикасининг асосий субъекти эканлиги билан белгиланади, унинг дастлабки тергов босқичида жиноятнинг сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш бўйича фаолияти жиноятлар ижтимоий профилактикасини амалга оширувчи бошқа субъектлар учун асос бўлиб хизмат қиласди¹.

Энг аввало “олдини олиш” ва “профилактика” тушунчаларини фарқлаб олиш мақсадга мувофиқ бўлади. Айрим тадқиқотчилар ва амалиёт ходимлари томонидан “олдини олиш” ва “профилактика” тушунчаларини қўллашда чалкашликлар мавжуддир. Шундан келиб чиқиб биз “олдини олмоқ” ва “профилактика” тушунчаларини ўзбек тилининг изоҳли луғатидан қидиришга ҳаракат қилдик. Ушбу луғатда “олдини олмоқ” тушунчасининг “хавф хатарнинг юз беришидан илгари чорасини кўрмоқ; ёмон оқибатнинг юз беришига йўл қўймаслик”², шунингдек, “профилактика” сўзининг – “умуман, бирор-бир ҳодисанинг олдини олиш учун қаратилган чоралар”³, деган маънолари изоҳланган. Бундан хулоса қилиш мумкинки, олдини олиш профилактикага нисбатан кенгроқ тушунча бўлиб, у профилактик чора-тадбирларни ҳам ўз ичига қамраб олади. Демак жиноятнинг олдини олиш унинг содир этилишига имкон берган сабаб ва шароитни аниқлаш ва уни бартараф этиш орқали амалга

¹ Криминология. Учебник под ред. проф. Малкова В.Д. – Москва.: 2004 г.-С 3.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.- Б 109.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.- Б 316.

оширилади. Шунингдек ушбу фаолиятни янги самарали механизмларини ишлаб чиқиши жиноятларнинг олдини олишга хизмат қилади⁴.

Ўзбекистон юридик энциклопедиясида жиноятларнинг олдини олишни жиноят процессининг асосий вазифаларидан бири сифатида қайд этилиб, ушбу фаолият суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд зиммасига жиноятнинг сабабларини, унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлашдан иборат эканлиги белгиланган⁵. Фикримизча, жиноят-процессуал нуқтаи-назаридан мазкур таъриф мазмунан янада бойитилиши лозим. Жиноят-процессуал кодексининг 297-моддасида: “...суриштирувчи, терговчи, прокурор жиноят ишини тергов қилиш чоғида жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаб чиқиб, тегишли давлат органига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органига, жамоат бирлашмасига, жамоага ёки мансабдор шахсга ана шу сабаб ва шарт-шароитларни бартараф қилиш чораларини кўриш тўғрисида тақдимнома киритади”, деб қайд этилган. Шу нуқтаи-назардан тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолияти нафақат жиноятнинг сабабларини, унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш, балки уларни бартараф қилиш бўйича процессуал чораларни кўришдан ҳам иборат.⁶

Жиноят-процессуал ҳуқуқига оид ва бошқа юридик адабиётларда тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг тушунчасига алоҳида таъриф берилмаган. Бироқ тергов органлари фаолиятининг асосини содир этилган жиноятларни очиш билан бирга жиноятларнинг олдини олиш ҳам ташкил этиши ҳақида фикрлар мавжуд. Бунда тергов органлари томонидан жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларини аниқлаш мажбурияти қонун ҳужжатларининг вазифаларидан бири бўлган жиноятларнинг олдини олиш чораларини кўришдан иборатdir⁷.

Д.М. Берова “...жиноятларнинг олдини олиш терговчининг жиноят содир этилишига имкон берган сабаб ва шарт-шароитларини аниқлашдан иборат бўлган асосий вазифаларидан бири,” деб номлайди⁸.

Ю.М. Антонян ва А.Г. Лекарлар эса, “...жиноятларнинг олдини олиш ўзида ҳуқуқбузарликларни ижтимоийлаштириш бўйича умумий олдини олиш

⁴ И. Исмаилов. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг криминологиктавсифи ва профилактикаси. Криминология. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси – Т., 2015-Б.15-16.

⁵ Ўзбекистон юридик энциклопедияси /нашр учун масъул Р.А.Мухитдинов ва бошқ. Т.:Адолат, 2010. Б. 184.

⁶ Якубов, Х. Ш. (2023). ТЕЗКОР ЭКСПЕРИМЕНТ ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРИНИНГ ТУШУНЧАСИ. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(5), 172-186.

⁷ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига шархлар. Масъул муҳаррир: проф. Ф.А.Абдумажидов. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б.-72

⁸ Берова Д.М. Понятие и система функций в уголовном судопроизводстве. 2010 С.- 232.

ишларини ифодалайди ва аввало криминалистика, сўнгра жиноят аспектида кўриб чиқилиши лозим,” деб хисоблаганлар⁹.

Келтириб ўтилган олимларнинг фикрларига қўшилган ҳолда, терговчининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг мазмуни муайян жиноятларга ва жиноятнинг содир этилишига имкон берган сабаб ҳамда шарт-шароитларни мақсадли тарзда умумий аниқлаш, шунингдек, шахс(лар)ни ҳуқуқий жиҳатдан тарбия қилиш ва унга таъсир қилган криминоген омилларни бартараф этиш, деган хуносага келиш мумкин.

С.И. Данилованинг фикрича, “...терговчи томонидан жиноятнинг олдини олиш фаолияти - бу жиноят иши дастлабки тергов жараёнида амалга ошириладиган ва жиноятнинг содир этилиш сабаблари ҳамда шарт-шароитларини бартараф этиши, шунингдек, бошқа органлар томонидан амалга оширилиши лозим бўлган профилактик чора-тадбирлари бўйича таклифлар ишлаб чиқишига қаратилган процессуал ҳаракатлар тизими”¹⁰.

Н.А. Якубович таъкидлашича “тергов органларининг жиноятларни олдини олиш вазифаси ўзига хос процессуал фаолият тури бўлиб, жиноятнинг содир этилиш шарт-шароитларини аниқлаш ҳамда тақдимнома киритиш орқали уларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирлар кўришга қаратилгандир”¹¹.

А.М. Жуков “...терговчи томонидан жиноятнинг олдини олиш фаолиятини жиноят процессининг бошқа иштирокчилари ёрдамида қонунда белгиланган тартибда қўлланиладиган, жиноят-ҳукукий профилактикани амалга оширишга, жиноятнинг содир этилиш сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитларини аниқлашга, уларни бартараф этишга, шунингдек, умумий олдини олишга қаратилган, бир-бири билан ўзаро боғлиқ бўлган чора-тадбирлар тизими”¹² сифатида таърифлайди.

Юқорида келтирилган фикрларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, тергов органлари томонидан амалга ошириладиган жиноятларнинг олдини олиш фаолияти юзасидан билдирилган қарашлар назарий жиҳатдан турлича бўлишига қарамай, уларнинг комплекс таҳлили, мазкур фаолиятнинг моҳиятини кўрсатувчи қуйидаги белгиларни таснифлаш имконини беради:

1. Жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини амалга оширувчи субъектлар доираси;

⁹ Антонян Ю.М. О понятии профилактики преступлений / Н. Вопросы борьбы с преступностью. М., 1997. С. 34; Лекарь А.Г. Профилактика преступлений. - М., 2012-С 35.

¹⁰ Данилова С.И Установление и устранение причин и условий, способствовавших совершению преступления, в стадии предварительного следствия: Дис канд. юрид. наук: Москва, 2011-С 184.

¹¹ Якубович НА. Теоретические основы предварительного следствия: учебное пособие. М., 2011. - С. 32.

¹² Жуков А.М. Специально-предупредительная деятельность в уголовном судопроизводстве. Саратов, 2008. - С. 35.

2. Фаолиятни олиб бориш чегаралари ва вақти;
3. Жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг вазифалари ва унинг ҳуқуқий асослари;
4. Жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини амалга ошириш усуллари (профилактик чора-тадбирлар).

Жиноят ҳуқуқига оид юридик адабиётларда жиноятларнинг олдини олиш, алоҳида меъёр сифатида ҳуқуқий хулқ-авторни белгиловчи ҳуқуқий онг даражасини шакллантириш орқали ижтимоий хавфли ҳаракатлар содир этилмаслигини таъминлаш сифатида таърифланган¹³. Жиноий-ҳуқуқий нуқтаиназардан мазкур таърифга қўшиламиз. Чунки, жиноят қонунчилиги орқали муайян хатти-ҳаракатларни содир этганлик учун жавобгарлик белгилаш орқали инсонларда ҳуқуқий хулқ-автор меъёrlари шакллантирилади ва унинг чегаралари ўрнатилади.

Маълумки, ҳуқуқшунос олимлар жиноятларнинг олдини олишни умумий ва маҳсус йўллар билан амалга оширилишини қайд этишган. Умумий шаклда аҳоли томонидан жиноят содир этилишининг олдини олиш бўлиб, у ёки бу хатти-ҳаракатни содир этилишига ҳуқуқий тақиқни белгилаш, жиноят содир этган шахсларни жазолаш билан таъминланади. Маҳсус шаклда жиноий жавобгарликка тортилган муайян шахс томонидан келажакда ижтимоий хавфли хатти-ҳаракатлар содир этилишининг олдини олишdir. Умумий шаклдан фарқли равишда маҳсус шакл фақат айбор шахсгагина тааллуқли бўлиши билан бирга, мазкур шахснинг жиноий жавобгарликка тортилиши ҳақида огоҳлантириш билан ҳам аҳамиятлидир.

Тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолияти доирасида аниқланадиган жиноятларнинг сабаблари ва уларга имкон берган шарт-шароитлар юқорида қайд этилган жиноятларнинг олдини олишнинг ҳар икки йўналишида ҳам ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Фикримизча, тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини шартли равиша икки бир-бирига узвий боғлиқ бўлган босқичларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ. Биринчи босқичда тергов органлари томонидан суриштирув ва дастлабки тергов жараёнида жиноятнинг содир этилишига сабаб бўлган ҳолатлар ҳамда унга имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш вазифаларини киритсак, иккинчи босқичда уларни бартараф этиш, хусусан тақдимнома киритиш, унинг ижросини таъминлаш билан боғлиқ вазифаларни киритамиз.

Юқорида қайд этилган фикрлардан келиб чиқиб, тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятига қуйидаги муаллифлик таърифини

¹³ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар // юридик фанлар доктори, профессор М.Х.Рустамбаев таҳрири остида. Т.:2009., Б.-4.

илгари суришни лозим, деб ҳисоблаймиз, яъни *тергов органлари томонидан жиноятларнинг олдини олиш фаолияти бу – тергов қилиши орқали жиноятларнинг сабабларини ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш, шунингдек уларни бартараф қилишга қаратилган процессуал ҳаракатлар мажсуми*дир.

Тергов органлари томонидан жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш, олиб боришдан кўзланган асосий мақсадлар жиноят ишларини юритишнинг жиноят-процессуал қонунларда белгиланган мақсадлари билан уйғундир. Жиноят ишларини юритишнинг жиноят-процессуал қонунларда белгиланган тартиби уч мақсадга хизмат қиласди: *биринчидан*, қонунийликни мустаҳкамлашга, яъни жиноят ишларини юритишида бош қомусимиз ҳамда қонунларнинг устунлигини эътироф этишга; *иккинчидан*, жиноятларнинг олдини олишга, яъни жиноят содир этган шахс(лар) ва бошқа процес иштирокчиларига ахлоқий-рухий таъсир кўрсатиб, улар томонидан янги жиноят содир этишининг олдини олишга; *учинчидан*, шахс, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилишга – жиноят-процессуал қонун ҳужжатлари жиноят туфайли зарап ёки зиён етган алоҳида шахс(лар), жамият ёки давлат манфаатларини ҳимоя этишга, шу жумладан, етказилган моддий ва маънавий зиённи қоплашга хизмат қиласди¹⁴.

Фикримизча, тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг мақсадларини қўйидаги тартибда кенгроқ ифода этиш лозим:

- жиноятларнинг сабабларини ва уларни содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этиш;
- жиноятларнинг барвақт олдини олиш фаолиятини зарур ахборотлар билан таъминлаш;
- фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, уларни жиноий тажовузлардан ҳимоя қилиш;
- ижтимоий хавфли қилмиш оқибатларини бартараф қилиш;
- ҳуқуқ-тартиботни сақлаш ва қонунийликни таъминлаш;
- ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсларнинг, бундай хатти-ҳаракатларни содир этишга мойил бўлган шахсларнинг жиноий фаолиятларига чек қўйиш.

Қайд этиш жоизки, тергов органларининг жиноятларнинг олдини олиш фаолияти юридик фанлар тизимида муҳим масала ҳисобланади. Айниқса, жиноят ҳукуқи, жиноят-ижроия ҳукуқи фанлари жиноятларнинг олдини олиш фаолиятининг ажралмас қисмини ташкил қиласди. Жиноят ҳукуқи содир этилган қилмишнинг жиноят эканлигини аниқлаш ва шу жиноят учун жазо тайинлашни,

¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига шархлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарх) Масъул мухаррир: профессор Б.Х.Пўлатов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.7.

жиноят процессуал ҳуқуқи содир этилган жиноят юзасидан суриштирув, дастлабки тергов органларининг суриштирув ва тергов ишларини олиб бориш, ишни судда кўриш билан боғлиқ бўлган фаолиятини тартибга солади. Жиноят ижроия ҳуқуқи эса, жиноят содир этганлиги муносабати билан жиноий жазога ҳукм қилингандарнинг жазосини ижро этишдан келиб чиқсан муносабатларни тартибга солади. Мазкур фанларнинг ўзаро боғлиқлиги, энг аввало, улар вазифаларининг, яъни жиноятчиликка қарши курашнинг умумийлигига ҳисобланади. Шундан келиб чиқсан ҳолда жиноят ҳуқуқининг ҳам, жиноят-ижроия ҳуқуқининг ҳам асосини ташкил қилувчи кодексларнинг асосий вазифаларида айнан жиноятларнинг олдини олиш қайд этилган. Жумладан, Жиноят кодексининг вазифалари шахсни, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини, жамият ва давлат манфаатларини, мулкни, табиий муҳитни, тинчликни, инсоният хавфсизлигини жиноий тажовузлардан қўриқлаш, шунингдек жиноятларнинг олдини олиш, фуқароларни Ўзбекистон Республикасининг бош қомуси ҳамда амалдаги қонунларига риоя қилиш руҳида тарбиялашдан иборат деб белгиланган¹⁵. Жиноят-ижроия кодексининг вазифаларида эса жазо ижросини таъминлаш, маҳкумларни ахлоқан тузатиш, жиноятлар содир этилишининг олдини олиш каби муҳим мақсадлар қайд этилган¹⁶.

Тақдимнома факат жиноятларнинг олдини олиш учун киритилади. Шу боис, агар терговчи тақдимномага юборилган жавобдан қониқмаса, у бу тўғрида муассаса, корхона, ташкилот маъмурияти ёки жамоадан шунчаки жавоб ёзиб юбориш билан шуғулланмай, қонунга асосан чора қўришни талаб қилиши мумкин. Зарур ҳолларда ўз тақдимномасининг тўғри бажарилаётганлигига ишонч ҳосил қилиш учун терговчининг ўзи йигилишга келиши мумкин. Агар тақдимномага умуман жавоб олинмаса, терговчи бундай жавобни олиш учун эслатма юборади.

Терговчи ҳодиса жойини кўздан кечириш ва тергов харакатларини бажариш натижалари бўйича тақдимнома киритадиган ҳоллар ҳам учраб туради. Терговчи бундай тақдимномага жавоб олиб, жиноятни тергов қилишда давом этади, жиноят содир этилишининг янада аниқроқ сабабларини билгач, яна тақдимнома киритади. Терговчининг бундай ҳаракати қонуний бўлиб, муассаса, корхона, ташкилот маъмурияти ёки жамоани тақдимномага яна жавоб бериш мажбуриятидан озод қилмайди.

Асосийси тақдимноманинг самарадорлиги бўлиб, у жиноятларнинг илгари содир этилган жойда бошқа содир этилмаслиги, улар сонининг камайиши ёки тақорорий жиноятчиликнинг олди олиниши билан белгиланади.

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. 2-модда. Тошкент.2021.- Б.7.

¹⁶ Ўзбекистон Республикасининг жиноят-ижроия кодекси. 2-модда. Тошкент.2022.- Б.6.

Айрим ҳолларда терговчи ўз юритувида бўлган жиноят ишларининг натижалари бўйича тақдимномалар киритади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, жиноятчиликка қарши курашишда, энг аввало, жиноятни содир этган шахс(лар)ни жавобгарликка тортиш орқали эмас, балки жиноятнинг сабаблари, унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар ва омилларни аниқлаб уларни бартараф этиш муҳим аҳамият касб этади. Тергов органлари томонидан ўз иш юритувида бўлган жиноятларнинг хар бир жиҳатидан келиб чиқиб тақдимнома киритиши ва уни бажаришини таъминлаши келгусида жиноятчиликни жиловлаш учун замин яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Малкова В.Д. Криминология. Учебник под ред. проф.— Москва.: 2004 г.-С 3.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.- Б 109.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.- Б 316.
4. И. Исмаилов. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва профилактикаси. Криминология. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси – Т.,2015-Б.15-16.
5. Ўзбекистон юридик энциклопедияси /нашр учун маъсул Р.А.Мухитдинов ва бошқ. Т.:Адолат, 2010. Б. 184.
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Маъсул мухаррир: проф. Ф.А.Абдумажидов. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б.-72
7. Берова Д.М. Понятие и система функций в уголовном судопроизводстве. 2010 С.- 232.
8. Якубов, Х. Ш. (2023). ТЕЗКОР ЭКСПЕРИМЕНТ ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРИНИНГ ТУШУНЧАСИ. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(5), 172-186.
9. Антонян Ю.М. О понятии профилактики преступлений Н Вопросы борьбы с преступностью. М., 1997. С. 34; Лекарь А.Г. Профилактика преступлений. - М., 2012-С 35.
10. Данилова С.И Установление и устранение причин и условий, способствовавших совершению преступления, в стадии предварительного следствия: Дис канд. юрид. наук: Москва, 2011-С 184.
11. Якубович НА. Теоретические основы предварительного следствия: учебное пособие. М., 2011. - С. 32.
12. Жуков А.М. Специально-предупредительная деятельность в уголовном судопроизводстве. Саратов, 2008. - С. 35.
13. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар // юридик фанлар доктори, профессор М.Х.Рустамбаев таҳрири остида. Т.:2009., Б.-4.
14. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарҳ) Маъсул мухаррир: профессор Б.Х.Пўлатов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.7.
15. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. 2-модда. Тошкент. 2021.- Б.7.
16. Ўзбекистон Республикасининг жиноят-ижроия кодекси. 2-модда. Тошкент.2022.- Б.6.

O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHINING DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Shermetov Doniyor Karimberganovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishining demografik xususiyatlari,yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar,aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi,O'zbekistonda demografik holatning keskinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, demografik xususiyatlar, investitsiya, tadbirkor, bandlik, soliq siyosati, shaffoflik, xalqaro mehnat tashkiloti, bozor, iqtisodiy faoliyat, strategiya, ish, mehnat statistikasi, yosh,tarkibi,ta'lif.

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatmizda yaratilayotgan ish o'rinalining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq.Mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning asosini 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etdi va unda aholining ish bilan bandligi masalasi alohida o'rinni tutadi.

O'zbekistonda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o'ta dolzarb qilib qolmoqda.O'zbekistonda 2021 yil 1 yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3%), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8%), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5%) va chet elda ishslash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi.O'tgan 5 yil ichida mehnat sohasida ham aksariyat jarayonlarni raqamlashtirish, mehnat

statistikasini Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga moslash, uning real ko'rsatkichlarini ta'minlash, ish bilan bandlikning yangi shakllarini rivojlantirish va keng foydalanish, shaffoflikni ta'minlash va mumkin qadar aholiga barcha xizmatlarni elektron platformalar orqali qulay va tezkor amalga oshirishga erishildi. «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri 2020 yilda qabul qilindi va u to'g'ridan-to'g'ri amal qilish kuchiga ega Qonun bo'ldi. Unda davlatning bandlik sohasidagi asosiy tamoyillari aks etib, hozirgi zamon mehnat huquq normalariga asoslangan. Jumladan, mehnat bozorini tartibga solishning yangi vositalari xususan, tadbirkorlikni rag'batlantirish, o'zini o'zi band qilish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish, malakasini oshirish, ish stajini hisobga olish, ishsizlik nafaqasini to'lash, ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar, respublikadan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyati amalga oshirayotgan fuqarolar va boshqa muhim yo'nalishlardagi masalalar qamrab olindi. Shuningdek, Mehnat kodeksi ham ilg'or mamlakatlar tajribasi asosida qayta ishlandi va turli muhokamalardan o'tib, 2021 yilda qabul qilingan. Unda mehnat munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy usullari, ish beruvchi va yollangan xodim o'rtasida, ijtimoiy sherikchilik, yakka tartibdagi mehnat munosabatlar va boshqa masalalar o'z yechimini topgan.

O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishining demografik xususiyatlari mamlakat aholisining dinamikasini, ta'lif darajasini, kasbiy tuzilmasini va ishchi kuchi ishtirokini aks ettiradi. O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy demografik omillarga quyidagilar kiradi:

1. Aholi soni va o'sishi: O'zbekistonda aholi soni ko'p va o'sib bormoqda, mehnat bozoriga yoshlarning katta qismi kirib kelmoqda. Aholi soni va o'sish sur'ati ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif dinamikasiga, shuningdek, yangi kelganlarni joylashtirish uchun ish o'rinalarini yaratish zarurligiga ta'sir qiladi.

2. Yosh tarkibi: Aholining yoshga oid taqsimoti, shu jumladan, mehnatga layoqatli (15-64 yosh) va qariyalar ulushi mehnatning mavjudligi va qaramlik nisbatiga ta'sir qiladi. Muvozanatli yosh tarkibi samarali ishchi kuchiga hissa qo'shishi mumkin, qarigan aholi esa ishchi kuchi barqarorligi uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

3. Ta'lif darajasi: Aholining ta'lif darajasi va malakasi ishchi kuchi sifatiga ta'sir qiladi. O'zbekistonning ta'lifdan foydalanish imkoniyatlari va sifatini, shuningdek, kasbiy ta'lifni yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlari inson kapitalini oshirish va turli sohalarda bandlik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Shahar-qishloq taqsimoti: ish kuchining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi muhim demografik xususiyatdir. Urbanizatsiya tendentsiyalari va qishloqdan shaharga migratsiya bandlik shakllariga, shuningdek, ikkala sharoitda ham infratuzilma va rivojlanishga bo'lgan ehtiyojga ta'sir qiladi.

5. Gender tarkibi: Ishchi kuchidagi gender taqsimoti erkaklar va ayollar o'rtasidagi bandlik imkoniyatlaridagi nomutanosiblik muhim demografik mulohazalar

hisoblanadi. Gender tengligi va ayollarning mehnatdagi ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mehnat bozorini inklyuziv va barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

6. Norasmiy bandlik: norasmiy bandlik va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarida va norasmiy iqtisodiyotda keng tarqalganligi mehnat bozorining xarakterini shakllantiradi. Norasmiy ishchilarning demografiyasini tushunish ularning zaif tomonlarini hal qilish va iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash uchun juda muhimdir.

Xulosa:

O‘zbekistonda mehnat bozori rivojlanishining demografik xususiyatlarini tahlil qilish va hal qilish har tomonlama ma'lumotlar to‘plash, tadqiqot va siyosat aralashuvini talab qiladi. Hukumat xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchilar bilan birgalikda ushbu demografik tendentsiyalarni tushunish va inklyuziv, samarali va barqaror mehnat bozorini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Қ.Х., Абдурганов Х.Х. Демография. – Тошкент: Ношир, 2011. – Б. 209.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2020 yildagi PQ-4829-son.
3. Kalonov.K O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarining muhimligi.
4. Z.N.Tojiyeva – Demografiya.
5. Cohen, R. (2006). Migration and its enemies: global capital, migrant labour and the nationstate, Oxford: Ashgate.
6. Вертелецкая Н.П. Миграционная политика в условиях глобализации // Мир и политика, 2012. №11.
7. A. Saliev - Demogeografik hududlar tarkibiy jihatlari.

ORGAN TRANSPLANTATION

Sodirov Begzod


Specialized school named after Abu Ali ibn Sino

Abstract: The transplantation of organs has revolutionized modern medicine, saving countless lives and providing hope for individuals suffering from organ failure. This life-saving procedure has gained significant momentum in recent decades due to advancements in medical technology and the increasing likelihood of finding a compatible donor. Organ transplantation offers numerous benefits to those in need and holds the promise of a better quality of life for recipients. In this article, we will explore the remarkable advancements in transplantation, the myriad benefits it provides, and the ethical considerations surrounding this medical marvel.

Key words: organ transplantation, benefits, medical advancements, organ donation, life-saving procedure, ethical considerations

Advancements in organ transplantation

Over the years, significant advancements in medical science have revolutionized the field of organ transplantation. Improved surgical techniques, better organ preservation methods, and the development of potent immunosuppressive drugs have increased the success rates of transplants and expanded the pool of potential donors. With the evolution of tissue typing and the understanding of immunological compatibility, the likelihood of finding a suitable match has substantially improved.



Additionally, the emergence of innovative technologies and medical devices has

facilitated the retrieval, preservation, and successful transplantation of organs, making the process smoother and more efficient.

One of the most notable advancements in organ transplantation is the introduction of minimally invasive surgical techniques, such as laparoscopic organ retrieval, which reduces the recovery time for donors and decreases the risk of complications. Furthermore, the ongoing research in the field of regenerative medicine and organ bioengineering holds promise for developing alternative solutions to donor organs, potentially alleviating the shortage of available organs for transplantation. These advancements have propelled organ transplantation into a new era of possibilities, offering hope to individuals whose lives are dependent on receiving a transplant.

The benefits of organ transplantation

The benefits of organ transplantation are manifold, extending beyond the mere extension of life. For recipients, a successful transplant can restore normal bodily functions, alleviate symptoms of organ failure, and enable them to lead a more fulfilling and active lifestyle. This life-changing intervention can provide individuals with the opportunity to resume their daily activities, pursue their passions, and create lasting memories with their loved ones. Moreover, the psychological and emotional impact of receiving a new lease on life cannot be underestimated, as it can instill a sense of gratitude, resilience, and optimism in recipients, motivating them to make the most of their second chance.

From a societal perspective, organ transplantation offers the prospect of saving lives and reducing the burden of chronic illness on healthcare systems. Through the generosity of organ donors and their families, the gift of life is bestowed upon those in need, providing a glimmer of hope in times of desperation. The ripple effect of a successful transplant extends to the families and communities of recipients, fostering a sense of unity and compassion as they witness the transformation and restoration of


their loved one's health. Furthermore, the advancements in transplantation have contributed to a deeper understanding of the human body and its potential for regeneration, pushing the boundaries of medical science and inspiring future innovations in healthcare.

Ethical considerations in organ transplantation

While the benefits of organ transplantation are unequivocal, the ethical considerations surrounding this procedure warrant careful deliberation. The primary ethical concern revolves around the acquisition of organs, particularly the issue of organ donation and consent. The concept of altruistic organ donation, where



individuals willingly offer their organs to save the lives of others, is commendable and embodies the spirit of generosity and empathy. However, the ethical implications of incentivized donation, commercialization of organs, and the exploitation of vulnerable populations underscore the need for stringent ethical guidelines and regulations to ensure the integrity and fairness of the transplant process.



Furthermore, the ethical considerations extend to the long-term care and support provided to organ transplant recipients, ensuring their well-being, autonomy, and access to continued medical care. The ethical imperative of respecting the autonomy and dignity of recipients, preserving their quality of life, and safeguarding their rights as transplant recipients demands a comprehensive and empathetic approach from healthcare providers and policymakers, facilitating a holistic and person-centered model of care for transplant recipients.

Conclusion

In conclusion, the transplantation of organs represents a remarkable feat of medical ingenuity, offering a ray of hope to individuals facing organ failure and delivering tangible benefits that transcend the realms of physical health. The ongoing advancements in organ transplantation, coupled with the spirit of altruism and generosity exhibited by organ donors, underscore the transformative power of this life-saving procedure. While ethical considerations shape the landscape of organ transplantation, the undeniable benefits and impact of this medical marvel continue to inspire hope, resilience, and a renewed appreciation for the precious gift of life. As we stand at the cusp of unprecedented medical advancements, the transplantation of organs stands as a testament to the resilience of the human spirit and the unwavering pursuit of healing and restoration.

References:

1. Baddarni K (2010) Ethical dilemmas and the dying Muslim patient. *Asian Pac J Cancer Prev* 11(1):107–112
2. AlBukhari M, Sahih AlBukhari (1958) Cairo: Matabi Asshab (1378H) 1958(6351)
3. Albar M (1995) Organ transplantation: an Islamic perspective. In: An Albar M. *Contemporary Topics in Islamic Medicine*, pp 3–11. Saudi Publishing House, Jeddah
4. Ebrahim AM. End of life issues: making use of extraordinary means to sustain life. *FIMA Year Book*, 2005–2006, Jordan Society for Islamic Medical Sciences in Collaboration with Federation of Islamic Medical Associations (FIMA) 11. Ibid
5. Asadi-Lari M, Madjd Z, Goushegir S (2008) Gaps in the provision of spiritual care for terminally ill patients in Islamic societies—a systematic review. *Adv Palliat Med* 7:73–80
6. Bernat JL (2002) Ethical issues in the persistent vegetative state patient. *Neurology*, 2nd edn, pp 283–305. Butterworth-Heinemann, Boston
7. Kassim PN, Adeniyi OB (2010) Withdrawing and withholding medical treatment: a comparative study between the Malaysian. English and Islamic law *Med Law* 29(3):443–461
8. Chamsi-Pasha H, Chamsi-Pasha MA, Albar MA (2014) Ethical challenges of deactivation of cardiac devices in advanced heart failure. *Curr Heart Fail Rep* 11(2):119–125

JADIDLAR VA JADIDLAR HARAKATINING O'ZBEKISTON IJTIMOIY MUHITIGA TA'SIRI

Egamov Elnur Eson o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlari Akademiyasi,
Milliy istixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi o'qituvchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya: Ushbu maqola jadidlar va jadidlar harakatining O'zbekiston ijtimoiy muhitiga chuqur ta'sirini o'rganadi. Jadidlar XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida vujudga kelgan islohotchilik harakati bo'lib, ta'lim, ijtimoiy va madaniy yangilanishni targ'ib qilgan. Ushbu maqolada tarixiy tahlil orqali jadidlar qo'llagan usullar, ular olib kelgan o'zgarishlar va O'zbekiston ijtimoiy tuzilishiga doimiy ta'sir ko'rsatadi.

Таким образом, эта теория поддерживает существование равновесия. Уровень предпринимательской активности, который постоянно меняется в зависимости от степени национального развития. Эта ставка считается «оптимальной» структура отрасли, реализуемая либо с точки зрения количества владельцев бизнеса или с точки зрения доли малых фирм в стоимости поставок». Отклонения от равновесного уровня, вызванные культурными силами, институциональные изменения и экономические тенденции рисуют вызвать негативные последствия. Последствия для национального роста, поскольку «в экономике может быть слишком мало и слишком много предприятий, и обе ситуации могут повлечь за собой снижение темпов роста». Слишком низкая равновесная ставка может означать мало стимулов к инновациям и изменять. Слишком высокая ставка может стать причиной неспособности использовать масштаб и экономия на масштабе, сокращение расходов на НИОКР или чрезмерная ценовая конкуренция, вынуждающая фирмы снижать качество продукции/затрат или прибегать к в теневую экономику. Следовательно, регионы, отклоняющиеся от уровня предпринимательской деятельности, совместная с их ВНП, рисуют получить более низкую темпы общего экономического роста.

Оптимальная равновесная ставка зависит как от веса секторах, — динамизм в сфере услуг статистически значительно выше, чем в обрабатывающей промышленности — и тип созданного предпринимательства. Следовательно, типовая политика создания стартапов не может быть панацеей для местных экономические и социальные проблемы, ни настоящего, ни будущего. Это заявление подкреплено многими доказательствами.

Один из наиболее цитируемых исследователей предпринимательства утверждает, что новые фирмы не всегда имеют склонность к инновациям выше, чем у действующих фирм, «даже для такой развитой страны, как Соединенные Штаты, лишь очень небольшая часть новых стартапов действительно инновационна». Без инновационных мощности, на конкурентном рынке эти фирмы имеют ограниченные шансы роста.

Аналогичным образом, обычно подавляющему большинству действующих фирм суждено оставаться небольшой фирмой или даже самозанятым предприятием. Такая возможность более вероятна, когда команды предпринимателей, управляющие такими фирмами, не обладать должным уровнем предпринимательства, а только бизнесом предпринимательство, то есть родовой дух или состояние действия в предпринимательская манера в широком смысле. Пионер в области исследования и образование в области предпринимательства объясняют, что существует «континуум», в котором каждый предприниматель или начинающий предприниматель имеет отличается повышением субъективного уровня предпринимательских способностей. В

Кроме того, чем меньше бизнес, тем теснее отношения между потенциалом предпринимателя и производительность фирмы, как правило, выше.

Как правило, политики не заботятся или не могут отобрать стремящихся предприниматели с лучшим потенциалом. Поэтому удивительно, что не обнаруживают ни высоких показателей неудач, ни большой доли микрофирм из политика, направленная на поддержку недифференцированных стартапов. В то время как фирмы, которые неспособны расти и развиваться, редко могут распространять знания или инноваций, высокие показатели отказов связаны с возможным рассредоточением государственные средства и невозвратные издержки.

Список использованной литературы:

1. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность организации в условиях кризиса: экономика, маркетинг, менеджмент. М., 2000. С. 223.
2. Данько Т.П. Управление маркетингом. М., 2004. С. 206.
3. Мазилкина Е.И., Паничкина Г.Г. Основы управления конкурентоспособностью. Саратов, 2005. С. 23-24.

COMPARATIVE ANALYSIS OF VERBAL COMMUNICATION IN UZBEK CULTURE AND SELECTED CULTURES

Ozodaxon O'ktamova Ilhomjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjima (ingliz tili) magistratura 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Gulgora Niyazova PhD

Abstract: This article provides a comprehensive comparative analysis of verbal communication in Uzbek culture and selected cultures, specifically Japanese and American. Verbal communication is a crucial element of human interaction, deeply intertwined with cultural norms, values, and traditions. By examining the distinct approaches to greetings, feedback, expressions of agreement or disagreement, non-verbal cues, negotiation, expressions of gratitude, humor, small talk, and decision-making, this article sheds light on the rich tapestry of verbal communication styles. The analysis highlights the significance of understanding and respecting these differences for successful cross-cultural interactions in our globalized world.

Keywords: Verbal communication, Uzbek culture, cross-cultural communications, non-verbal cues

Introduction

Communication is a fundamental aspect of human interaction, and it takes various forms across different cultures. Verbal communication, in particular, plays a pivotal role in conveying thoughts, feelings, and information. This article explores the nuances of verbal communication in **Uzbek culture** and compares it with **selected cultures** to shed light on the diversity and commonalities in human expression.

Uzbek Culture: A Rich Tapestry of Tradition

Uzbek culture is a vibrant blend of tradition, history, and language. The Uzbek language is a Turkic language, and the majority of Uzbeks are fluent in Uzbek, making it the primary language of communication. Uzbek is written in the Latin script, and this change from the Cyrillic script in 1993 signifies the cultural evolution of Uzbekistan.¹

Uzbek verbal communication is characterized by a high degree of respect for elders and authorities. It is common to use formal titles and honorifics when addressing individuals of higher status. This practice, rooted in Uzbek traditions, demonstrates the importance of hierarchy and respect within the culture. Greetings often involve

¹ Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2009). Intercultural Communication: A Reader. Cengage Learning.

extended pleasantries and inquiries about one's well-being, reflecting the warmth and hospitality for which Uzbeks are known.

Another unique aspect of Uzbek verbal communication is the use of proverbs and idiomatic expressions. These colorful phrases add depth and richness to conversations, drawing from the collective wisdom and storytelling traditions of the Uzbek people.

Selected Cultures for Comparison

To provide a comparative analysis, we will look at two diverse cultures: Japanese and American.

Japanese Culture: Politeness and Indirect Communication

Japanese culture is renowned for its emphasis on politeness and indirect communication. Verbal communication in Japan places a strong emphasis on hierarchy, much like Uzbek culture. The use of honorifics and formal titles is crucial, and there are various levels of politeness in the Japanese language. The Japanese art of silence or "ma" also plays a significant role, as pauses and non-verbal cues are used to convey meaning.²

American Culture: Directness and Informality

American culture, on the other hand, is known for its direct and informal communication style. In contrast to Uzbek and Japanese cultures, Americans often use first names even when interacting with superiors, fostering a sense of equality and informality. Verbal communication is typically straightforward, and there is a preference for clear and concise expression of ideas.³

Comparative Analysis

When comparing Uzbek, Japanese, and American cultures in terms of verbal communication, several key differences and similarities emerge:

- *Hierarchy and Politeness:*

Uzbek and Japanese cultures share a strong emphasis on hierarchy and the use of formal language and titles, reflecting deep respect for authority.

American culture, in contrast, places a premium on informality and equality, resulting in the use of first names even in professional settings.

- *Directness:*

Uzbek and Japanese communication tend to be more indirect, using nuanced language and non-verbal cues to convey meaning.

American communication is typically more direct and straightforward.

- *Non-Verbal Communication:*

² Tashakkori, A., & Teddlie, C. (Eds.). (2003). Handbook of Mixed Methods in Social & Behavioral Research. SAGE Publications.

³ Nishiyama, K., & Nakane, I. (1976). Japanese Society. University of California Press.

All three cultures incorporate non-verbal cues, but the significance and meaning of these cues can vary widely. For example, eye contact, body language, and gestures are interpreted differently in each culture.

Verbal communication is a complex and multifaceted aspect of human interaction, and it is strongly influenced by cultural norms and traditions. The comparative analysis of Uzbek, Japanese, and American cultures highlights the diverse approaches to verbal communication, reflecting the values and societal structures of each culture.

To further elaborate on the importance of understanding these differences, consider the following points:

Cultural Awareness: Cross-cultural communication is not just about the spoken words but also about understanding the cultural context in which communication occurs. Being aware of the verbal communication norms in various cultures helps individuals avoid misunderstandings and cultural insensitivity.⁴

Business and Diplomacy: In the realm of international business and diplomacy, effective communication can make or break a deal or negotiation. Understanding the communication style of your counterparts from different cultures can lead to more successful outcomes.

Personal Relationships: In our interconnected world, personal relationships often span across cultures. Understanding how your friends, colleagues, or romantic partners from different backgrounds communicate can strengthen these relationships.

Conflict Resolution: Knowing how various cultures approach conflict resolution is vital in avoiding or managing conflicts effectively. Some cultures may prefer a direct approach, while others may rely on subtle cues or mediation.

Learning Opportunities: Learning about different communication styles can be enriching and broaden one's perspective. It fosters cultural empathy and respect, enabling individuals to engage in meaningful intercultural dialogues.

Verbal communication is a powerful tool that shapes and is shaped by culture. The comparative analysis of Uzbek culture, along with Japanese and American cultures, illustrates how distinct cultural values and norms influence how people communicate. Recognizing these differences and being open to learning from one another can foster a more interconnected and harmonious world, where diversity is celebrated, and effective cross-cultural communication is an asset.

In Uzbek culture, greetings are warm and extended, often accompanied by inquiries about well-being. For example, a common greeting might be, "Assalomu alaykum! Qalaysiz? (Hello! How are you?)"

⁴ Smith, P. B., & Bond, M. H. (1993). Social Psychology Across Cultures: Analysis and Perspectives. Harvester Wheatsheaf.

In Japanese culture, bowing is a significant part of greetings, and one might say, "Konnichiwa" during the day. The level of the bow and use of honorifics vary depending on the relationship and hierarchy.

In American culture, greetings are often more casual. A typical greeting might be a simple "Hi" or "Hello." First names are commonly used, even when meeting someone for the first time.

Feedback and Criticism:

In Uzbek and Japanese cultures, criticism is often conveyed indirectly to avoid causing embarrassment or conflict. For instance, in Uzbek culture, someone might say, "Bu qiziqarli masala" (This is an interesting issue) when addressing a sensitive topic.⁵

In American culture, direct feedback is more common. Constructive criticism is often given straightforwardly, and it is expected that the recipient will accept it professionally.⁶

Expressing Agreement or Disagreement:

In Uzbek culture, showing agreement may involve nodding and polite expressions like "Aynan!" (Exactly!). Disagreement may be conveyed subtly, such as through silence or changing the topic.

In Japanese culture, saying "Hai" (Yes) might not always indicate complete agreement but rather acknowledgment. Disagreement might be expressed indirectly.

In American culture, "Yes" typically means agreement, and "No" means disagreement. Americans tend to value open and clear communication when it comes to agreement or disagreement.

Non-Verbal Cues:

In Uzbek culture, maintaining eye contact is generally seen as a sign of attentiveness and respect. Avoiding eye contact can be interpreted as a lack of interest or respect.

In Japanese culture, prolonged eye contact can be considered impolite or confrontational. Respectful eye contact in Japan tends to be brief and intermittent.

In American culture, the importance of eye contact varies based on context, but it is generally encouraged as a sign of attentiveness and confidence.

These examples highlight how nuances in verbal communication styles can have a significant impact on interactions and relationships. Being aware of these differences allows individuals to navigate various cultural scenarios with greater sensitivity and effectiveness.

Ultimately, understanding the diverse approaches to verbal communication across cultures not only enhances personal and professional relationships but also promotes cultural appreciation and harmony in our increasingly interconnected world.

⁵ Nishiyama, K., & Nakane, I. (1976). Japanese Society. University of California Press.

⁶ Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. Anchor Books.

Negotiation and Decision-Making:

In Uzbek culture, negotiations can involve lengthy discussions and may require patience. Decisions are often made collectively, with the input of various stakeholders.

In Japanese culture, consensus and harmony are highly valued. Decision-making can be a gradual process, and reaching a consensus may take time.

In American culture, negotiations tend to be more goal-oriented, and decisions are often made efficiently. There is a focus on individual decision-making, and time is of the essence in many business settings.

Expressing Gratitude:

In Uzbek culture, expressing gratitude is a common practice and may involve lengthy expressions of appreciation. For instance, "Rahmat sizga katta minnatdorchilik!" (Thank you very much for your kindness!) is a common way to show gratitude.

In Japanese culture, expressions of gratitude are often humble and understated. Saying "Arigato gozaimasu" is a polite way to thank someone.

In American culture, expressions of gratitude are typically more straightforward, with phrases like "Thank you" or "Thanks" being common.

Humor and Jokes:

In Uzbek culture, humor often revolves around wordplay, anecdotes, and proverbs. Uzbeks enjoy telling stories and sharing witty expressions.

In Japanese culture, humor can be subtle and may involve puns or clever wordplay. Sarcasm or direct teasing is less common, as it can be considered impolite.

In American culture, humor is often characterized by directness and a wide range of styles, from slapstick to sarcasm. Jokes may be quite explicit and even self-deprecating.

Small Talk:

In Uzbek culture, small talk often involves discussing family, health, and personal matters. It's an essential part of establishing rapport.

In Japanese culture, small talk may revolve around neutral topics like the weather or current events. Personal matters are generally not the focus of small talk.

In American culture, small talk can encompass a wide range of topics, and people often share personal stories and experiences in casual conversation.

These examples demonstrate how cultural norms influence various aspects of verbal communication, from decision-making processes to expressions of gratitude and humor. Recognizing and respecting these differences can lead to more effective and harmonious cross-cultural interactions.

In conclusion, the comparative analysis of verbal communication in Uzbek culture and its comparison with Japanese and American cultures illuminates the intricate ways in which language and communication are interwoven with cultural values, norms, and

traditions. The examples provided underscore the significance of understanding and respecting these differences in various contexts, whether they are personal relationships, business negotiations, or cross-cultural diplomacy.

Verbal communication serves as a gateway to the heart of a culture, revealing the respect for hierarchy, the expression of gratitude, the approach to humor, and the subtleties of agreement or disagreement. By acknowledging and appreciating these distinct communication styles, we can bridge the gaps between cultures, foster mutual understanding, and build stronger and more harmonious connections in our diverse, globalized world.

As we continue to engage with individuals from diverse backgrounds and navigate a complex, interconnected society, the ability to navigate the intricate tapestry of cultural communication styles becomes ever more critical. It allows us to celebrate our differences, learn from one another, and ultimately build a world where effective cross-cultural communication and understanding are celebrated as valuable assets.

References:

1. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. McGraw-Hill.
2. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. Anchor Books.
3. Smith, P. B., & Bond, M. H. (1993). *Social Psychology Across Cultures: Analysis and Perspectives*. Harvester Wheatsheaf.
4. Nishiyama, K., & Nakane, I. (1976). *Japanese Society*. University of California Press.
5. Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2009). *Intercultural Communication: A Reader*. Cengage Learning.
6. Tashakkori, A., & Teddlie, C. (Eds.). (2003). *Handbook of Mixed Methods in Social & Behavioral Research*. SAGE Publications.

UDK: 378.091.33:51

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASASALARIDA TAXSIL OLAYOTGAN TALABALARNING LOYIHALASH KOMPETENTLILIGINI OSHIRISH

*Xidirova Dildora Zayniddinovna**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”**kafedrasi dotsent (PhD)**Telefon: +998973136559*

Annotation. Texnika oliy ta'lismuasasalarida taxsil olayotgan talabalarning loyihalash kompetentliligini oshirish bo'yicha ilmiy g'oyani nazariy asoslay olish, talabaning ta'lism sub'ekti sifatidagi pozitsiyasiga bog'liqdir, uning loyihalash jarayonida ishtirok eta olish darajasi, loyihalashdagi bilim hamda ko'nikmalar, loyihalash jarayonidagi tajribasi hamda unga motivatsion-maqsadli yo'naltira olinganligi, shu bilan birga, refleksiv-baholay olish qobiliyatini aks ettira oluvchi shaxsning integral dinamik xususiyati sifatida loyihalash kompetentliligining taklif etilgan talqiniga asoslangan.

Kalit so'zlar: kasb, ta'lism, talaba, talab, jarayon, tizim, tajriba, bilim, qiziqish, faollik, o'zlashtirish, tavsiya, maqsad, mohiyat, rejashtirish.

Texnika oliy ta'lismuasasalarida taxsil olayotgan talabalarning loyihalash kompetentliligini oshirish bo'yicha ilmiy g'oyani nazariy asoslay olish, talabaning ta'lism sub'ekti sifatidagi pozitsiyasiga bog'liqdir, uning loyihalash jarayonida ishtirok eta olish darajasi, loyihalashdagi bilim hamda ko'nikmalar, loyihalash jarayonidagi tajribasi hamda unga motivatsion-maqsadli yo'naltira olinganligi, shu bilan birga, refleksiv-baholay olish qobiliyatini aks ettira oluvchi shaxsning integral dinamik xususiyati sifatida loyihalash kompetentliligining taklif etilgan talqiniga asoslangan.

Talabalarning kasbiy, shaxsiy sohalarda loyihalarni yarata olishi hamda amalgao shirishiga imkoniyat yaratib beradigan harakatlar – talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida loyihalash kompetentliligini oshirish uchun tashkiliy hamda pedagogik shart-sharoitlarni shartlaydi.

Talabalarning loyihalash kompetentliliği ulardagi shaxsiy hamda protsessual jihatlariga alohida ta'sir ko'rsata oladigan hamda samarali ishlay olishi, rivojlanishini ta'minlaydigan o'quv hamda moddiy muhit imkoniyatlarining umumiyligini aks ettiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi [34, 57]. Shu bilan birga, pedagogik shart-sharoitlar pedagogikada qo'yilgan topshiriqlarni hal etishga qaratilgan shakllar, mazmun, usullar, moddiy-fazoviy muhitning o'ziga xos majmui sifatida anglanadi

[103]. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar o‘ziga xos pedagogik sharoit bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega sanaladi.

M.G.Minin texnika oliygochlari talabalarining loyihalash va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni "texnika oliygochlarda pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun bevosita yoki bilvosita shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi shartlar to‘plami", deb hisoblanadi [92, 93].

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, shuni alohida takidlash joizki, zamonaviy ta’lim tizimining so‘rovini inobatga olgan holda, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ostida pedagogik faoliyatni amalga oshirish, shuningdek, tarkibni maqsadli to‘ldira olish, pedagogik vositalar, shakllar, usullarni tanlay bilish talabalardagi loyihalash kompetentliligini samarali takomillashtirishni ta’minlayladi.

Tashkiliy hamda pedagogik shart-sharoitlarni asoslash ularni takomillashtirish uchun talabalarni kasbiy jarayonga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlarini, muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qita olish xususiyatlarini, loyihalash kompetentliligini oshirishda talabalik davrining yosh xususiyatlarini, xususan, pedagogik shart-sharoitlarning psixologik tarkibiy qismini yanada adekvat asoslash taqozo qilinadi.

Talabani o‘smyrlig bosqichining ikkinchi davri yoki yetuklikning birinchi davriga to‘g‘ri kelib, u shaxsiy xususiyatlarning shakllanish imkoniyatiga ega (N.A.Muslimov, Z.T.Raximov, A.A.Xo‘jaev, X.Sh.Kadirov) [83]. Xususan, qat’iyatlilik, maqsadlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik kabi bir qancha fazilatlar, ayniqsa, ko‘zga tashlana boshlaydi.

Z.K.Ismoilovaning fikriga ko‘ra, ushbu tadqiqotda biz talabalik davrini shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, jamiyatdagi muvaffaqiyatiga yo‘naltirilgan fazilatlari hamda intilishlarini oshirish uchun eng qulay davr, deb sanaymiz [53]. Bundan tashqari, bu davrda yetuk sub’ektiv xususiyatlarning shakllanishi sodir bo‘ladi. Shaxsiy taraqqiy etishga e’tibor ustuvor bo‘lganligi uchun, bugungi kunda dunyoqarash, semantik tizim, insonning mehnatga, o‘ziga hamda boshqa odamlarga munosabati tizimli shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, talabalik davrida sub’ektivlikning shaxs sifatida rivojlanishi intensiv ravishda sodir bo‘ladi [85].

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tobora o‘zgarib bormoqda. Ijodiy faol shaxsni kamol toptirish birinchi o‘ringa chiqmoqda, tez o‘zgaruvchan holatda qaror qabul qila olishga, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga hamda mehnat qilishga qodir bo‘lgan, raqobatbardosh hamda ijodkor kadrni tarbiyalash vazifasi yangilab kelinmoqda [118].

Yuqorida aytib o‘tilganlar zamonaviy ilmiy-pedagogik jamiyatning bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlash jarayoniga joriy etilishi lozim bo‘lgan optimal vositalar, usullar, texnologiyalarni qidirish orqali aniqlab olingan ehtiyojlarga javob bera olish lozimligini belgilaydi. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash

xususiyatlarini aniqlash uchun biz muhandislik kasbining zamonaviy tushunchasiga murojaat qilamiz.

Qayd etilgan manbalarda shuni ta'kidlash mumkinki, bo'lajak muhandisga qo'yiladigan zamonaviy talablar ilgari keltirilgan talablardan farq qiladi: masalan, zamonaviy muhandislik bitiruvchisi bir vaqtning o'zida turli xil elektron yuqori ixtisoslashtirilgan dasturlarda samarali ishlashga tayyor bo'lishi kerak; ishlab chiqarish chekllovleri ostida hamkasblar bilan muloqot qilishi; kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlar nuqtai nazaridan gorizontal va vertikal o'zaro ta'sirlarni ko'rsatib berishi; chekllovlar sharoitida natijalarga erisha olishi, shu bilan birga, mavjud ko'rsatmalarga muvofiq hamda ulardan tashqarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni hal eta olishi talab qilinadi [81].

Bugungi zamonaviy muhandisga yangilangan talablarni qo'yish tendensiyasini jahon hamjamiyatida ham kuzatish mumkin. Shunday qilib, bugungi kunda nafaqat muhandisning tayyorgarligini o'zgartira olish, balki uning xatti-harakatlarini yangilashga sharoit hozirlash lozimligini ko'rsatadi. Shu sababli yetakchi texnika ta'lim muassasalari nafaqat STEAM deb nomlanadigan fanlarni, balki o'quv jarayoniga gumanitar, ijtimoiy fanlarni ham kiritishga qaratilgan. Bugungi kundagi STEAM – yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimidagi muqobil tizim sanaladi. Ushbu metod talabalarni bir vaqtning o'zida Technology (texnologiya), Science (tabiiy fanlar), Art (san'at) Engineering (muhandislik) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qita olish tizimiga asoslangan, ushbu metodda talabalar amaliy, ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida ta'lim oladilar. Shu bilan birga, ushbu tendensiya yosh avlodni o'ziga jalg qiladi, shunga ko'ra, zamonaviy talabalar global muammolarga yechim topishga undaydilar va natijada tor doirada mavzularni batafsil o'rganishga yo'naltirilmaydi. Bundan tashqari, inson hayotining barcha sohalarida texnologik tizimlarga o'tish tufayli muhandislik ta'limi sifatiga alohida munosabat mavjud [41, 106].

Talabalarni loyihalash faoliyatiga jalg etish orqali ularni o'z kasbi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarga ega bo'lishlariga tayyorlashdan iborat. Shuningdek, talabalar ijtimoiy hamda professional loyihalarda qatnasha oladilar. Oliy ta'limda yuqori samaradorlikka erishish uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan, talabalarning o'zları tomonidan turli xil mahsulotlar hamda tizimlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkoniyatini yaratib bera oladigan umumiylar hamda kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan loyihalash tizimini qurish muhimdir. Loyihalarning maqsadlari, vazifalari va mazmunini to'g'ri shakllantirish, o'quv jarayonini samarali modernizatsiya qilish bilan birga, yangi natijaga erishishning samarali mexanizmi hisoblanadi: tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish qobiliyati; mantiqiy hamda tizimli fikrlashni takomillashtira olish; loyihalash, fikrlashni oshirish (muhandislik); hamkorlikni rivojlantirish; tasavvurni, ijodkorlikni o'stirish; global


fikrlashni takomillashtirish; talabalarning o'quv jarayoni faolligini oshirishga qaratilgan [146].

Ilmiy tadqiqot ish beruvchilar uchun jamoada ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, ishbilarmonlik muloqoti, tashabbuskorlik, muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qilish qobiliyati kabi kompetensiyalarning muhimligini ta'kidlaydi [67, 98].

Kasbiy hamda shaxsiy muammoli masalalarni hal etishga hissa qo'shadigan talabalarning loyihalash kompetentliligini oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda amalga oshirish vazifasini dolzarblashtiradi [80].

Dissertatsiya ishini olib borishda ilmiy izlanish ob'ekti sifatida tanlab olingan ta'lim yo'naliшining umumiyoт mohiyatiga tayangan holda talabalarning loyihalash kompetentligini oshirishda e'tibor qaratalishi lozim bo'lgan jihatlar to'g'risida tasavvurlar aniqlashtirib olindi.

5310600 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'naliшhi – ta'lim, fan, texnika sohasidagi ta'lim yo'naliшlaridan biri bo'lib, u avtomobil transporti vositalarini yaratish, ulardan foydalana olish, texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlashning samarali jarayonlarini hamda ularga innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda yo'naltirilgan usullar hamda vositalar majmuasini qamrab olgan. Shu bilan birga, bu yo'naliшda bakalavrular tayyorlash kunduzgi, sirtqi, kechki, ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ushbu yunalishda barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qish kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi [139].



1.2.1-rasm. Ta'lim yo'naliшhi bitiruvchisining kasbiy faoliyat turlari [139].

Ta'lim jarayoniga turli darajadagi murakkablik va oddiy faoliyatda tajriba orttirishga qaratilgan ikki yoki undan ortiq loyihalarni kiritishni nazarda tutadi. Ammo,

mavjud bo'lgan talablarga qaramay, haqiqiy amaliyotda bilim, tajriba, shu bilan birga, loyihalash asoslari bo'yicha talabalar umumiy tushunchalarga ega bo'lmasligi, ular o'rgana oladigan texnik mazmun orasidagi munosabatlarni o'rnatish imkoniyatini ochib beradi [147].

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi fundamental, maxsus tayyorgarlikka muvofiq quyidagi kasbiy jarayon turlarini amalga oshirishi lozim:

Muayyan faoliyat turlari universitet tomonidan yaratilgan Asosiy ta'lim dasturining mazmuni bilan belgilanadi.

Bitiruvchilar belgilab olingan tartibda ta'lim muassasalarida ishlashlari ham mumkin.

5310600 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kasbiy faoliyatining turiga qarab quyidagi kasbiy vazifalarni hal qilishga tayyorlanadi [139]:

a) operatsion, texnologik va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida foydalaniladigan avtotransport vositalari va transport vositalarining normativ-texnik hujjatlar talablariga muvofiq ishlashi;

- o'rnatilgan, boshqariladigan va ta'mirlangan transport vositalari va transport uskunalarini sinovdan o'tkazish va ish faoliyatini aniqlash;

- transport, transport uskunalarini, uning elementlari va tizimlarini ishlash jarayonida almashtirish uchun asbob-uskunalar va birliklarni tanlash;

- transport va transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni boshqarish;

- transport va transport uskunalarini o'rnatish va sozlash bo'yicha xavfsiz ishlarni tashkil etish;

- turli mulkchilik shaklidagi avtotransport vositalari va transport uskunalarini ekspluatatsiya qilishda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning marketing tahlilini o'tkazish;

- mijozlar bilan ishlashni tashkil etish;

- transport vositalari va transport vositalarining xavfsiz ishlashini nazorat qilish;

- operativ hujjatlarni ishlab chiqish;

- transport, transport uskunalarini uchun yaratilgan qismlar, agregatlar, tizimlarni, transport hamda transport vositalariga texnik xizmat ko'rsata bilish, ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni, sertifikatlashda ekspertiza hamda auditlarni tashkil eta bilish;

- sertifikatlashtirish va litsenziyalash hujjatlarini tayyorlash va ishlab chiqish.

b) tashkiliy va boshqaruv faoliyatida:

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil etish, boshqaruv qarorlarini tanlash, asoslash, qabul qilib olish hamda amalga oshirish;

- transport, shu bilan birga, transport texnikasidan foydalana olish, saqlash, texnik xizmat ko'rsata olish, ta'mirlash, ularga xizmat ko'rsata bilish korxonalarining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini oshirish;

- buxgalteriya hisobi, hujjat aylanishi tizimini tashkil qilish hamda uni takomillashtirish;

- avtotransport vositalari, asbob-uskunalarni ekspluatatsiya qilishdagi masalalar, ularga texnik xizmat ko'rsata olish qobiliyati, ta'mirlash hamda saqlashning oqilona me'yorlarini tanlay olish hamda kerak bo'lganda yaratish;

- uzoq muddatli, qisqa muddatli rejlashtirishda turli talablar (narx, sifat, xavfsizlik va muddatlar) o'rtaida murosani topish va oqilona yechimni aniqlash;

- mahsulot va xizmatlar sifatini ta'mirlash uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarini baholash;

- mahsulot, mahsulot va xizmatlar sifatini boshqarish va texnik nazoratni amalga oshirish;

- xodimlarning mehnatiga haq to'lash tizimini tubdan takomillashtirish;

- xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va mutaxassislarni tayyorlash va sertifikatlash.

v) loyihalash va muhandislik faoliyatida:

- kasbiy faoliyatning yangi ob'ektlari uchun texnik shartlar va talablar, standartlar hamda texnik tavsiflar, me'yoriy hujjatlar loyihalarini yaratishda ishtiroy etish;

- loyiha (dastur) maqsadlarini shakllantira olish, muammoli masalalarni hal etish, maqsadlarga erishish mezonlari, ko'rsatkichlari, ularning munosabatlari tuzilmasini qurish, muammolarni hal qilishning ustuvor yo'nalişlarini aniqlash, faoliyatning ma'naviy tomonlarini hisobga olish;

- muammoni hal qilishning umumlashtirilgan variantlarini ishlab chiqish, bu variantlarni tahlil qilish, oqibatlarini bashorat qilish, murosali echimlarni topish;

- mexanik, texnologik, estetik, ekologik va iqtisodiy talablarni hisobga olgan holda kasbiy faoliyat ob'ektlari loyihalarini ishlab chiqish;

- qismlar, mexanizmlar, mashinalar, ularning jihozlari va agregatlarini loyihalashda ishtiroy etish;

- yangi turdag'i transport va transport vositalarini, shuningdek, transport korxonalarini loyihalash va ishlab chiqishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- transport vositalari va transport vositalarini ta'mirlash, modernizatsiya qilish va modifikatsiyalash bo'yicha loyiha hamda texnologik hujjatlarni ishlab chiqish.

g) ishlab chiqarish va texnologik faoliyatda:

- transport vositalarini ekspluatatsiya qilish yoki asbob-uskunalarni ishlab chiqarishda texnik xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va boshqa xizmatlarning ishlab chiqarish dasturini belgilash;

- texnologik jarayonlar va hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

- texnologik jarayonlar parametrlarini hisoblash uchun materiallar, jihozlar, tegishli algoritm va dasturlardan samarali foydalanish;

- samarali muhandislik yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- ehtiyyot qismlari, butlovchi qismlar va materiallar sifatini nazorat qilishni, texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishni, mahsulot va xizmatlar sifatini nazorat qilishni tashkil etish va samarali amalga oshirish;

- transport va transport uskunalarini ekspluatatsiya qilish jarayoni (shu jumladan, ekologik), texnik xizmat ko'rsatish, saqlash, ta'mirlay bilish, shu bilan birga, xizmat ko'rsatish xavfsizligini, xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlay bilish;

- asosiy o'lchov vositalarini metrologik tekshirish va diagnostikani amalga oshirish;

- transport mexanizmlari va jihozlarini o'rnatish va sozlash, mualliflik va nazorat nazorati;

- avtotransport vositalari va transport vositalaridan foydalanish jarayonida texnik nazoratni tashkil etish va amalga oshirish;

- materiallar, mahsulotlar va xizmatlarning standart va sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish;

- resurslarni tejay olish bo'yicha takliflarni yaratish hamda ularni amalga oshirish;

- jarayon parametrlarini hisoblash uchun materiallar, jihozlar, tegishli algoritmlar va dasturlardan samarali foydalanish;

- texnik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish.

d) ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- muammoli masalaga yo'naltirilgan usullardan foydalangan holda sinovlar sifatini ta'minlay bilish, mahsulot, xizmatlarni sertifikatlash jarayonlarini tahlil etish, sintezlash hamda optimallashtirish;

- transport va transport texnikasidan foydalanish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarda ishtiroy etish;

- zaruriy tadqiqot usullari va vositalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyat ob'ektlarining sifat ko'rsatkichlarining holati hamda ularning dinamikasini tahlil eta olish;

- kasbiy faoliyat jarayonidagi ob'ektlarining xususiyatlarini bashorat etish imkonini beruvchi modellarni ishlab chiqish;

- tadqiqot natijalarini tahlil etish hamda ularni amalga oshirish bo'yicha takliflarni yaratish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini texnik, tashkiliy ta'minlashni amalga oshirish;

- kasbiy faoliyat ob'ektlari bo'yicha tadqiqot o'tkazish rejalar, dasturlari hamda usullarini yaratish;

- tajriba-konstrukturlik ishlanmalari ustida ishlay olish;

- tadqiqot ob'ektlari bo'yicha axborotni qidira bilish va tahlil etish;

- yangi axborot texnologiyalarini asoslay olish hamda qo'llay bilish.

e) o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonda:

- uzlusiz ta'lim tizimlarida o'quv jarayonini tashkil etishda hamda o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personali);
 - ilmiy hamda texnik tadqiqotlarda ishtirok etish;
 - ma'lumotlarni to'play bilish, umumlashtirish hamda tahlil qilish;
 - umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimlarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy texnologiyalarni egallay olish hamda ularni amaliyotga joriy etish.

Tegishli bo'lgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi hamda lozim bo'lgan zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablarda talabalar tomonidan ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni, samarali yaratish, transport vositalari korxonalaridagi transport vositalarini sozlash usullari hamda vositalarini bilish, ulardan foydalana olish, texnikaviy xizmat ko'rsata olish bo'yicha o'quv-bilish jarayonini tashkil qilish ko'nikma, malakalarining samarali o'zlashtirilishi lozimligi ko'rsatib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Matyash H.B., Vолодина Ю.А. Методика оценки проектной компетентности студентов [Электронный ресурс].// Психологическое исследование. Интернет-журнал, 2011. № 3(17). – Режим доступа: <http://psystudy.ru/index.php/num/2011n3-17/488-matyash-volodina17.html>
3. Зайцева С.А., Смирнов П.В. Этапы формирования проектной компетентности будущего учителя в вузе.// Ж.: Школа будущего, 2016. №6. С. 128-134
4. Зайцева С.А., Смирнов П.В. Формирование проектной компетентности бакалавров педагогического направления подготовки средствами специальных информационных дисциплин. // Мир Науки. Научный интернет-журнал, 2017. № 5. С. 4-11.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5310600 - Transport vositalari muxandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi malaka talablari. – Т., 2020. 13 b.
6. Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2015. 260 b.
7. Уразова М.Б. Теория и практика системы подготовки будущего педагога к проективной деятельности (на примере направления профессионального образования). – Ташкент: Камалак, 2012. 142 с.
8. Umarova F.A. Talabalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. 51 b.

O`ZBEK TILIDA HIKMATLI SO`ZLARNING O`RGANILISH TARIXI

Pardaboyeva Muxlisa Zokir qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda barqaror birliklarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi hikmatli so`zlar xususida so`z yuritiladi. Hikmatli so`zlarning kelib chiqishi va uning tarixiga nazar tashlaymiz .

Kalit so`zlar: hikmatli so`z, aforizm, tibbiyotda aforizm tushunchasi , adabiyotda aforizm tushunchasi, zamonaviy adabiyotda aforizm tushunchasi

Xalqimiz orasida “Shirin so`z - tan ozig`i , achchiq so`z – jon qozig`i ” degan g`ozal naql yuradi. Bu naqlar beziz xalqimiz orasida ommabop bo`lgan emas. Tilimizni shirin qiladigan ham , achchiq qiladigan ham so`zdir. So`zlarimiz orasida esa albatta qadim qadimdan qolgan, ajdodlarimizdan meros bo`lgan maqollar, matallar, hikmatli so`z-u, iboralar bilan bezalgan. Bugungi kunda esa biz ulardan beixtiyor foydalanamiz-u, ammo ularning qay yo`sinda paydo bo`lgani yohud qachon, qayerda yaratilgani haqida hech qiziqib ko`rmaganmiz.

Ayrim adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo`lsak, yuqorida tilga olingan maqollar-matallar iboralar , hikmatli so`zlar bir nom bilan barqaror birikmalar deb yuritiladi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo`lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o'rinci foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rgi hisoblanadi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiyligini tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Maqol va matallar
2. Hikmatli so`zlar (aforizmlar)
3. Iboralar (frazeologizmlar)

Hikmatli so`zlar (aforizm). Aforizm - fikrni ixcham, izchil ko'rinishda yopiq tarzda ifodalashga qaratilgan ixcham bayon yoki jumladir.U juda muhim savol tug'diradi: "U nutqimizda qachon paydo bo'ldi? Bu tushuncha uzoq vaqtdan beri ma'lummi yoki yaqinda paydo bo'lganmi? "Bu savolga aniq javob berish uchun tarixni o'rganish kerak. Biroq siz ehtiyyot bo'lishingiz kerak va ikkita jihatni hisobga olishingiz kerak: aforizm janr va so`z sifatida. Bu tushuncha uzoq vaqtdan beri ma'lum. Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon olimi Gippokrat, tibbiyotda aforizmlar haqida risola yozgan. U ba'zi kasalliklarning diagnostikasi va alomatlari to'g'risida, shuningdek ularni qanday qilib oldini olish va ularni davolovchi haqida xabar berdi. Bugungi kunda

ko‘pchilik bunday fikrlarni biladi: "Hayot - bu qisqa makon, san'at abadiydir", "Yomonlik qilma - abadiy qo‘rquvda bo‘lmaysan" va hokazo. Antik adabiyotlarda ham ushbu tushunchaning ishlatalishi haqida gaplar bo‘lishi mumkin. 8-asrda Dante "aforizm" tibbiy atamadir deya jar sola boshlaydi. Vaqt o‘tishi bilan u boshqa sohalarga tarqaldi. U tabiiy fanlar, siyosat, falsafa va huquqshunoslikda paydo bo‘ldi Antonio Perezning aytishicha, aforizm - axloq haqidagi siyosiy qarashlaridir. Ko‘plab tadqiqotchilar adabiy va badiiy shaklga ega ekanligiga ishonishadi. Faqat 18 asrda Rossiyada bunday tushuncha mavjud edi. "Aforizm" so‘zining ma'nosi tibbiyot va adabiyot nuqtai nazaridan talqin qilingan. XIX asrning boshida aforizmalar deb nomlangan kitoblarning ko‘rinishi paydo bo‘ldi. Shunday qilib, K.Smitter "Aforizm yoki turli xil yozuvchilarning tanlangan tushunchalari ..." nomli to‘plam nashr etdi. So‘ngra bunday bayonotlar bilan kitoblar paydo bo‘ldi va keyinchalik bu atama ayniqsa mashhur bo‘ldi. XX asr oxirida "aforizm" deb nomlangan kitoblar paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda ushbu atama adabiy ma'noda qabul qilinadi. Aforizmning tarixi janr sifatida qarama-qarshilik va murakkablik bilan qarashadi, ammo avvalgi mavzuga qaraganda bir xil va muhimroqdir. Aforizm so‘zining ma'nosi qanday ma'noga ega degan savolga hech kim aniq javob bera olmaydi. Germaniyada faqatgina zamonaviy adabiyotlarda paydo bo‘lgan va janr bilan aloqasi yo‘qligiga ishonishadi. Biroq, boshqa olimlar bu aforizmning bayonot ekanini ta’kidlashadi. Shuning uchun ham uning tarixini so‘zma-so‘z nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. Zamonaviy adabiyotlar so‘z va og‘zaki so‘zlar bir xil deb hisoblaydi. Bugungi kunda ushbu tushunchalar qadimgi mutafakkirlarning nomlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Antik va zamonaviy so‘zlar aforizmalar deb nomlanadi. Bularning barchasi bir janrga tegishliligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, aforizmlar zamonaviy so‘zlardir va so‘zlar ularning o‘tmishidir. Ular, albatta, o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Uyg'onish davrida aforizmlar Evropa bo`ylab tarqaldi. Erasmus Rotterdamning "Adagiya" asarida juda ko‘p hikmatli so‘zlar va maqollar to‘plangan. Angliyada Wald, Shaw, Smiles va boshqalar aforizmlarni yaratdi, 19-asrning oxirida ular «aforizm» so‘zining nazariy va leksik ma'nosini o‘rganishga kirishildi.

Bugungi kunda zamonaviy adabiyotimizda aforizmlardan foydalanmaydigan yohud ular yordamida o‘z asarlarini bezamaydigan adib-u adibalarimizni topish qiyin. Aforizmlar bir so‘z bian aytganda nutqimizning go‘zalligiga yanada go‘zallik qo‘shadigan, fikrimizni jozibali qilishga ko‘maklashuvchi vosita hisoblanadi. Hikmatli so‘zlardan unumli va o‘rinli foydalanish ham yozuvchi uchun, ham o‘quvchi uchun alohida zavq bag`ishlaydi.

O`ZBEK TILIDA IBORALARNING O`RGANILISH TARIXI

*Muxlisa Pardaboyeva Zokir qizi**Jizzax davlat pedagogika universiteti**O`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror birikmalar tarkibiga kiruvchi iboralar haqida so`z boradi. Iboralarning kelib chiqishi va ularning tarixiga nazar tashlanadi

Kalit so`zlar: barqaror birikma, ibora, fraza, frazeologiya, iboralarning o`rganilish tarixi

O`zbek tili grammatikasiga nazar tashlasak unda ma'lum qonun qoidalar tizimida shakllangan til sohalariga guvoh bo'lamiz. Shunday bo'limlardan biri frazeologiya sohasida iboralar ya'ni frazemalar o'rganiladi. Har qanday tilning lug'at boyligi faqat yangi so`zlar yasalishigagina emas, balki iboralar, turg'un so`z birikmalari hisobiga ham son jihatidan, ham sifat jihatidan boyib boradi. Tildagi ana shunday turg'un birikmalar "dunyosi" bilan shug'ullanuvchi fan frazeologiya fanidir. Frazeologizm atamasining turli adabiyotlarda bir necha variantlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan:**ibora, frazeologik birlik, barqaror birikma, turg'un birikma, frazeologik birikma** kabilar shular jumlasidandir. Frazalar kelib chiqishi juda qadamiy bo'lsada ularni o'rganish ilmiy va amaliy tadqiq qilish nisbatan yosh hisoblanadi. O'tgan asrdan boshlab ularni sintagmatik, paradigmatic va stilistik xususiyatlari tadqiq qilina boshlandi

Frazeologiya iboralar haqidagi ta'limot bo'lib, bu terminni 1928 yilda E.D.Polivanov qo'llagan edi: "Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo'lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni "frazeologiya" degan terminni qo'llashni lozim topdim". Darhaqiqat, so'nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo'ldi. bir qator monografik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob'ekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o'z o'rnini shakllantirdi. Hozirgi kunda bu termin ikki ma'noda qo'llanilmoqda.

1. Tildagi frazeologik birikmalarning jami;
2. Turg'un iboralarni o'rganuvchi soha, fan

So'nggi yillarda ko'plab tillar materiallari asosida olib borilgan keng ko'lamlı frazeologik tadqiqotlar natijasida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflanmoqda. Ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma'no anglatuvchi turg'un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora) deyiladi. G'arb tilshunoslari orasida Sh.Balli birinchilardan bo'lib 1905 yilda frazeologiya terminini qo'llagan. U frazeologizmlarni stilistik nuqtai nazardan tilning ifoda birligi sifatida talqin qilgan. XX asrda frazeologizmlarni tadqiq qilgan olimlar orasida V.V.Vinogradovning semantik klassifikatsiyasini ta'kidlab o'tish lozim. Olim rus tili frazeologiyasini semantik klassifikatsiya qildi va mazkur klassifikatsiya ko'plab tillar frazeologizmlarni jadal o'rganishga turtki bo'ldi. Ushbu o'rinda ingliz tili frazeologiyasi tadqiqotchilar N.N.Amosova, A.V.Kunin, nemis tili frazeologiyasi tadqiqotchilaridan I.I.CHernishyova, A.D.Rayxshtayn, fransuz tili frazeologiyasi

tadqiqotchilaridan M.I.Retsker kabi olimlarning nazariy va amaliy izlanishlarini alohida tilga olish lozim. Frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so‘z kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasisidir. So‘z leksik ma’noga ega bo‘lgani kabi frazeologizm o‘am o‘zining frazeologik ma’nosiga ega. So‘zdagi barcha paradigmatic, sintagmatik xususiyatlarni frazeologizmlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so‘z va erkin so‘z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, frazeologizm frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya ob’ektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar ma’no butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so‘zga o‘xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik ma’nosini turg‘un, ko‘proq emotsiyal ekspressiv xususiyatga ega bo‘lgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik ma’no leksik ma’nodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Aksariyat frazeologizmlarning identifikatori mavjud emas, ya’ni mazkur frazeologizm ifodalab kelayotgan ma’nosini bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi hamda bu ma’no erkin so‘z birikmasi bilan izohlanishi mumkin xolos. Tillardagi turg‘un iboralarning ilmiy tasnifi birinchi navbatda, frazeologizmlarga berilgan atamalarni tartibga solishdan iborat bo‘lishi kerak.

Tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmalarini ifodalash uchun turli terminlardan foydalanilmoqda. Mazkur holat ushbu turg‘un so‘z birikmali tabiatining murakkabligi bois yuzaga kelmoqda. Umuman olganda tilimizdagи turg‘un birikmalar nutqimizni yanada ciroqli qilish, yanada jimjimador qilib ko`rsatish uchun ham kerak, aslida. Iboralar nutqimizdagи ayrim bir xilliklardan qochish maqsadida ishlatilinadi desak ham mubolag`a bo`lmaydi. Bugungi kunda esa bundan birliklarni o`rganayotgan olimlarimiz ham kam emas yurtimizda. Masalan, Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» (1992), M.Sodiqovaning “Qisqacha ruscha o‘zbekcha barqaror iboralar lug‘ati” (1994), Mahmud Sattorning “O‘zbekning gapi qiziq” (1994), B.Yo‘ldoshev, K.Bozorboyevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (so‘zlik, 1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning “Ma’nolar mahzani” (2001) singari leksikografik asarlar mualliflari shular jumlasidandir.

K.Bozorboyevning nomzodlik ishi ham o‘zbek frazeologiyasi rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘sildi. Bu ishga nazar tashlansa, dastlabki bobida so‘zlashuv nutqi frazeologizmlarining paydo bo‘lish, ularning manbalari, qatlamlari shuningdek o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

